

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

I.Yuldashev, B.Qurbonova

**Boshlang'ich sinf tasviriy san'at fani  
o'qituvchilari uchun mavzular  
bo'yicha tavsiyalar**

(Umumta'lif maktablarining 1-sinf o'quvchilari uchun)

# USLUBIY QO'LLANMA



Farg'ona 2014

Ushbu uslubiy ko'rsatmadan boshlang'ich sinf

**Tuzuvchilar:** I.Yuldashev

FarDU o'qituvchisi

B.Qurbanova

FarDU o'qituvchisi

**Taqrizchilar:** F.O'rinoval

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Yu.Ibragimov

FarDU katta o'qituvchisi

Farg'ona 2014

## KIRISH

*Rasm chizmoq – fikr yuritmoq demakdir.*

**P.P.Chistyakov**

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, islohatlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Mazkur strategik maqsadga erishishning demokratik davlat fuqarolik jamiyati shakllantirishining asosi bo'lib kelmoqda.

Prezident I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida tasviriy san'at xaqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "...Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi".<sup>1</sup>

Yuqoridagi fikrlardan ko'rindan, tasviriy san'at tarixi va uning xozirgi kundagi ahamiyati soxa mutaxassisli tomonidan mukammal o'zlashtirilishi lozim bu bilimlar tizimi tasviriy san'atning rivojlanish bosqichlarini belgilab beradi.

Boshlang'ich ta'limning vazifasi – jiddiy mashg'ulotni bolaga qiziqarli qilishdir. Har qanday sog'lom bola faoliyatiga, ayniqsa, jiddiy faoliyatga mushtoq bo'ladi. U o'z tengqurlari bilan o'ynashdan ko'ra ota-onasiga biron jiddiy ishda ko'maklashishni afzal ko'radi. Lekin bu ishga uni kuchi yetadigan bo'lishi va uzoq davom etmasligi zarur. Shunday ekan, bolani dastlabki darsdanoq o'z vazifasini sevishga va uni bajarishga o'rgating.

Ma'lumki, san'atning turlari nihoyatda ko'p bo'lib, ularning eng asosiyлари sifatida adabiyot, musiqa, kino, teatr, me'morchilik, amaliy bezak, sirk, televidenie, tasviriy san'at kabilarni alohida e'tirof etish mumkin.

"Tasviriy" atamasi "tasvirlash" so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, bo'yoq, tosh, gips, yog'och, shuningdek, boshqa badiiy va turdosh materialtar yordamida har xil timsolarning va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi.

Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o'rganishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqealarni, odam va hayvonlarni tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar san'at, tabiat hodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblagantur.

Ayni paytda tasviriy san'at asarlari kishilarning his tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham egadir. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotlariga ana

<sup>1</sup> Karimov.I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent. Ma'naviyat. 2008. B. 147-148.

shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko'rib esa ularga o'xhashgga intiladilar. San'at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xatti-harakatlarni ko'rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo'lishga intitadilar.

Ayniqsa, tarixiy mavzudagi san'at asarlarini tomosha qilganda, o'sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari, kishilar hayoti, ularning kiyimlari, urf-odatlari bilan tanishadilar, qurilishlar, binolar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki undagi alohida e'tiborga molik, xarakterli ko'rinishlarni tashlab oladilar, e'tiborsiz, ikkinchi darajali ko'rinishsharni tushirib qoldiradilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsataditar. Tanlash va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalarning kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishiga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkordir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'zi o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Demak, san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g'oyalarini ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. Shu bilan birga bunday asarlar kishilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ular ma'naviy olamini, bilim va tajribasini kengaytiradi.



Maktab tasviriy san'at dasturida ta'lif va tarbiyaviy, vazifalardan kelib chiqqan holda bu o'quv buyumining mazmuni belgilanadi. Lekin bu mazmun har bir o'lka, tuman, maktabning sharoitini nazarda tutgan holda o'zgarishi mumkin.

Har bir o'qituvchi o'quv materiallarini ta'lif-tarbiyaviy vazifalarga rioya qilgan holda o'zi mustaqil ravishda aniqlaydi. Bunda o'qituvchi tanlanadigan materialarning bolalarga yaqinroq va tushunarliroq bo'lishiga harakat qiladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari to'rt turdan tashkil topadi. Bular *narsaning o'ziga qarab va tasavvurdan rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, mavzu asosida rasm ishlash, tasviriy san'at haqida suhbat o'tkazishdan* iborat.

Maktab tasviriy san'at kursida *narsaga qarab va tasavvurdan rasm chizish* asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Narsaning o'ziga qarab va tasavvurdan rasm chizish mashg'ulotlarida bolalar borliqdagi narsalarning shakli, tuzilishi, rangi va

boshqa shu kabi xususiyatlarini, ularning bir-biridan farqi va o'xshash tomonlarini solishtirish orqali aniqlashni o'rganadilar.

Shuningdek, narsalarning qaysi geometrik shaklga xos ekanligini aniqlagan holda ularni perspektiv jihatdan tasvirlash yuzasidan bilim va malakalar hosil qiladilar. Borliqning yorug'lik manbaiga nisbatan joylashuvini hisobga olgan holda ularning yorug', soya, yarimsoya, refleks(tasvirlanayotgan jismlardagi ranglarning bir-biriga ta'siri), blik(tasvirlanayotgan jismdagi eng yorug' nuqta. U asosan yaltirovchi chinni, shisha va shunga o'xshahs boshqa buyumlarda kuzatiladi)larini tasvirlashni o'rganadilar. Eng muhim, narsalarni kuzatish orqali qalam va bo'yoqlar bilan ularning rasmini ishlash malakalarini hosil qiladilar va o'stiradilar. Bunday mashg'ulotlarda bolalar rangshunoslikdan elementar bilimlarga ega bo'ladilar, obrazli fikr yuritish malakalarini hosil qiladilar.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida turli-tuman buyum rasmlarini chizish bilan birga, o'simliklar, gullar, daraxtlar qush va hayvon rasmlari ham chizdiriladi. Chizishdan avval ularni tahlil qilish va o'rganish bolalardagi eng yaxshi sifat- borliqni bilishga xizmat qiladi, ularning bilim doirasini kengaytiradi. O'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish esa materialistik dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalarda aqliy faoliyatning o'sishi ham borliqni kuzatish, uning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash, narsalarning tuzilishini bilish bilan bog'liqdir. Dars jarayonida narsalar haqida tushunchalar hosil qilish, fikr yuritish, ular haqida o'ylab ko'rish, solishtirish, ushlab ko'rish, xulosalar qilish bolalarda fikrlash qobiliyatining o'sishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Narsaning o'ziga qarab va tasavvurdan rasm chizish kishilar uchun eng zarur xususiyatlardan hisoblangan xotirani o'stiradi. Tasviriy san'at dasturida o'quvchilarda bunday xususiyatlarni o'stirishga qaratilgan vazifalar juda ko'p. Masalan, narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslarining hammasi tasavvurdan rasm chizishga asoslangan. Sinfdagagi borliq o'quvchining ko'z o'ngida dars oxirigacha tursada, o'quvchi chizish jarayonida undan ma'lum vaqtga ko'zini uzadi.

Dasturda shunday mashg'ulotlar ham borki, bu darslar to'la ravishda tasavvur asosida rasm chizishga asoslanadi, bunday darslarda borliq o'quvchilar oldiga ma'lum chegaralangan vaqtga (4-5 daqiqa) belgilanadi, so'ngra u berkitib qo'yiladi, bolalar esa tasavvur asosida eslab, kuzatilgan narsaning rasmini chizadilar. Shuningdek, sinfda kuzatilgan buyumning uyda qaytadan eslab, rasmini chizish kabi vazifalar ham beriladi.

Narsaga qarab rasm chizishda o'quvchilarda fazoviy tasavvur va tafakkur o'stiriladi.O'quvchilarda bu xususiyatlarni rivojlantirishda, ayniqsa, hajmli buyumlarning perspektiv jihatdan rasmini chizdirishning ahamiyati katta. Uch

o'lchovli narsalarni (bo'yi, eni, qalinligi) tekislikda ikki o'lchovda tasvirlash ham bolalarda ana shunday xususiyatlarni o'stirishga yordam beradi. Chiziladigan narsalar shaklining konstruktiv tuzilishi(qurilishi)ni taxlil qilish abstrakt(mavhumlik) tafakkurni o'stirish bilan bog'liqdir.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslari ta'limiylar xarakterga ega bo'lisi bilan bir qatorda, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Ayniqsa u o'quvchilarning estetik va vatanparvarlik, mehnat tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Masalan, chizdiriladigan narsalardan amaliy san'at buyumlari - vaza, lagan, tovoq, objo'sh, patnis, choynak, piyola va boshqalarning shakli, rangi, tuzilishi, yuksak badiiy saviyada ishlanishi bolalarning estetik his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatmasdan iloji yo'q. Shuningdek, meva va sabzavotlardan qovun, tarvuz, nok, anor, uzum kabilarning shakli, o'lchovi, rangi, o'lchov nisbatlarining turli-tuman ekanligini kuzatish, tahlil qilish, o'rganish, narsalardagi shakl va mazmun birligini xis qilish bolalarda ana shu sifatlarning o'sishiga yordam beradi.

Respublikamizning moxir ustalari tomonidan yuqori badiiy saviyada yaratilgan amaliy san'at buyumlari va mirishkor dehqonlarimiz yetishtirgan shirin-shakar, rang-barang meva va sabzavotlarni kuzatish va o'rganish bolalarda xalqqa, ona yerga, Vatanga bo'lган mehr-muhabbatini yanada oshiradi.

O'quvchilarda narsaga qarab rasm chizish malakalarini xosil qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

**I.** Shakli va tuzilishi murakab bo'limgan yakka narsalar rasmini ishlash (1 - 3- sinflar). Bunday narsalar rasmini chizishda ularning xajmini va perspektiv qisqarishini tasvirlash maqsad qilib qo'yilmaydi.

**II.** Shakli va tuzilishi 1-3-sinflardagiga qaraganda murakkabroq bo'lgan yakka va narsalar to'pining rasmini ishlash (4-6-sinflar) bu sinflarda narsalarning xajmi va perspektiv qisqarishini tasvirlash shart qilib qo'yiladi.

Buyumga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida bolalar rang doirasi va spektr xaqida tushunchalar oladilar, yorug' va soya, yorug'lik manbaining holatiga qarab, yorug'-soyalarning narsalarda joylashushi, rang va tabiatdagi, san'at asarlaridagi kayfiyat va xolat, ranglarning yaqinligi va kontrast, ranglardagi dekorativlik kabilalar xaqida tushuncha oladilar.

Buyumga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida chiziladigan narsalar bolalar saviyasiga mos bo'lisi bilan birga, ularda qiziqish orttirishi, shakl va rang jihatdan original bo'lisi juda muxim. Ba'zi bir o'qituvchilar narsaga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida ko'pincha quruqdan-quruq geometrik shakllarni (kub, konus, prizma, shar, piramida kabi), geometrik shakldagi narsalarni (quti, duradgorlik asboblari kabi) chizdiradilar. Bunday mashg'ulotlar bolalarning faolligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu bilan geometrik shakllar va

geometrik shakldagi narsalarni chizdirish mumkin emas, degan xulosa kelib chiqmaydi. Geometrik shakllar asosidagi buyumlardan shundaylarini tanlash kerakki, bu narsa bolalarda qiziqish uyg'ota olsin. Masalan, yashik o'rniga juda chiroyli bezakli oyoq kiyimning korobkasini va uning yoniga maydaroq bir kichik narsani qo'yib chizdirish ancha samaraliroq bo'ladi. Buyum tanlashda yana shu narsa nihoyatda muhimki, ular toza, bejirim, bolalarning havasini keltiradigan bo'lishi lozim. Masalan, oddiy bir choynak va piyola rasmini chizdirishdan ko'ra, paxta gulli choynak va piyola rasmini chizdirish samaraliroqdir.

Chizish uchun buyum tanlashda, tanlangan buyumlarning tashqi ko'rinishiga, haddan tashqari bezakdor va ola-bula bo'lmasligiga e'tibor berish kerak. Ortiqcha bezak borliqdagi yorug'-soyalarni idrok etishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, tanlangan buyumning yaltiroq bo'lishi ham zararlidir. Bunday buyumlar atrofdagi narsalarni o'zlarida aks ettirib, yorug'-soyalarni aniq ko'rishga yo'l qo'ymaydi.

Ma'lumki, ertak, masallarda hayvonlar odamlarga o'xshatib ifodalaniladi, ular o'zaro gaplashadilar, o'ynaydilar, odamlarga xos turli harakatlarni bajaradilar. Ertaklarda hayvonlarning odamlarga o'xshatib ifodalanishi voqealarni oson, emosional idrok etishda keng imkoniyatlar yaratadi, natijada ertak personajlari qush va hayvonlar odamlarning holatlarida, ular kiyadigan kiyimlarda tasvirlanadi. Bularning jami illyustrativ rasm chizish mashg'ulotlari samaradorligini oshirishga olib keladi.

O'quvchilar ijodiy faolligini oshirish uchun doimo mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishiga erishish lozim. Asarni ifodali o'qish va uni jonli tahlil qilish esa o'quvchilarning tasviriy faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi va rasmdagi obrazlarning ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi.

Tasviriy san'at haqida suhbat darslari o'quvchilarni faqat estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qilibgina qolmasdan, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy va mehnat tarbiyasini takomillashtirishga yordam beradi. Shu maqsadda maktab tasviriy san'at dasturida o'zbek, rus, chet el rassomlarining hayoti va yaratgan asarlarini o'rganish tavsiya etiladi. Bunda tasviriy san'at asarlarini o'qiy olish va tushunish, san'at asarlariga o'z munosabatlarini bildirish, o'quvchilarning badiiy fikr doirasini kengaytirish kabilalar asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, tasviriy san'at asarlari haqida suhbat g'oyaviy-siyosiy tarbiyani amalga oshirishga ham yordam beradi.

Dasturda o'rganish uchun tavsiya etilgan manzara fon rolini o'ynashi va odam katta bo'limgan o'lchovda tasvvirlanishi talab etiladi. Manzara aniqlashtirilgan, odam tasviri esa surat mazmunini yorqin ochib berishga qaratilgan bo'lishi, shuningdek, bu sinflarda odam va hayvonlar faqat xarakterli holatda tasvirlangan bo'lishi lozim.

Boshlang'ichg sinflarda tasviriylar san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta'lim mazmunini kichik maktab yoshidagi bolalarining yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriylarini xarakterli jihatlaridan yana biri ularning rasmlarini soddalashtirishga bo'lган harakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishlarini (uy, odam, kitob, soat), ayrimlarini yon tomondan (mashina, hayvonlar, qushlar, bsliqlar, bayroqcha va boshqalar), yana boshqalarni ustki tomondan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz, toshbaqa va boshqalar) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'-soya, perespektiv qisqarishi va ularning qoidalarini hali tushunib yetmaganliklaridandir.

Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) bir-birlarini to'sib turgan (yoki qisman) xolda tasvirlanmasligidir. Chunki bolalar narsalarni doimo butun xolda idrok etadilar.

Yuqorida qayd etilgan tasviriylarining bu xususiyatlari bolalar tafakkurining aniq, obrazli va emotsiyal tarzda bo'lishligi bilan bog'lanadi.

### **Bolalarda borliqni idrok etish mashg'ulotlari**

Borliqni idrok etish mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda amaliyotda ularni o'rganishni quyidagi yo'llari qo'llaniladi:

1. Buyumni, tabiatni o'ziga qarab kuzatish orqali o'rganish.
2. Borliqni o'qituvchilar suxbati orqali o'rganish.
3. Savol-javob orqali o'rganish.
4. Borliqni rasmini chizish orqali o'rganish.
5. O'qituvchining pedagogic tasvirlari (sinf taxtasida, turli formatlarda) orqali o'rganish va boshqalar.

O'qituvchilar tomonidan namoyish etilayotgan narsalar va tasvirlar avvalo mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq holda bo'lib, ular o'z tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari bilan sodda, tushunarli, boalarda his-hayajon uyg'otadigan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Eng muximi, bunday materiallar o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boitadigan bo'lishi muhim.

Ko'rgazmali qurollar, namoyish etiladigan narsalar, ularni tasvirlari haqidagi ma'lumotlarni bolalarga og'zaki yetkazishda ularning taxlili muxim ahamiyat kasb etadi. Bu taxlil bevosita narsalarni tuzilishi shakli, rangi, o'lchovlari, ularning moxiyati haqida savol-javob tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

## **1-Mavzu: TASVIRIY SAN`AT TURLARI**

Tasviriylar san'atning uch turi mavjud:

1. Grafika

2. Rangtasvir
3. Haykaltaroshlik


**Grafika** - dastgohli, gazeta-jurnal va kitob grafikasi hamda gravyura, kiselografiya, linogravyura, litografika, ofort, plakat, pannolar sanoat grafikasi.

“*Grafika*” – lotincha so'z bo'lib “*yozaman, chizaman*” degan ma`noni bildiradi va tasviriy san`atning turlaridan biri hisoblanadi. Dastgohli va kitob grafikasi tasviriy san`atning barcha turlari kabi kompozisiyaning umumiyligini qonunlariga tayanadi. Dastgohli grafika o`z hususiyatlari ega bo`lib - shakl, masofa chiziq shtrix va kontur vositasida oq-qora tasvirda ifoda etiladi.

Kitob grafikasi bezagini muvaffaqiyatli chiqishi, rassom grafikasining qobiliyatiga, adabiyotni qanday tahlil qila olishiga bog`liq, mahorat cho`qqisini egallagan bezakchi rassomlar kitob mazmunini alohida grafik asari darajasiga yetkazadilar.

Rassomning vazifasi shundan iboratki, u voqeani, adabiy obrazni , kitob mazmunini tasvir orqali tushunishga yordam berishi kerak, kitob uchun ishlangan illyustratsiyalar shakl jihatdan dinamik, rangdor, ta`sir etuvchi adabiy asarni tekst matnini jozibali qilib ko`rsatishga yordam berishi lozim. Bolalar kitobiga ishlangan tasvirlar uzoq vaqt yoshlar ongida qolib ularning badiiy didlarini o`stiradi. Bezak jarayonida format va harf ishslashda bolalarning yoshlari va talablarini etiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Kitob grafikasida “Zarvaraq” nomli ibora ishlataladi. Bu Zarvaraq (kitobning ustki qismi) o`quvchilarga adabiy matnning ma`lum yo`nalishini tasavvur etishlari uchun hizmat qiladi. Bundan tashqari kitobning ustki bezagi reklama vazifasini ham o'tashi mumkin. Muqova bezagi kitob mavzusining maqsadiga muvofiq bo`lishi uchun kitobning nomi, uni ifodolovchi tasvir, matn munosabatlari hamda uyg`unligi va birligiga ahamiyat berishi lozim.



Kitob illyustrasiyasini tayyorlashda uning qanday asarligiga alohida e'tibor berish kerak. Illyustrasiya grafikasi yaqin masofadan ko'rishga mo'ljalanadi. Kitob mazmuniga qarab tasviriy vositalardan foydalanish mumkin (tush', grafit, qalam va tehnikada tasvir bajarish lozimligini belgilaydi).


## Grafika



Vladimir Parshin.  
**Salom.**



Dilyus Mirsalimov.  
**Daraxtzor.**



Qutlug' Basharov. **Poyga.**

Bir kitobda qalam tasvir, soya-yorug`, shakl, havo, perespektivasi vosita bo'lsa, ikkinchisida ertak mavzusi odam va hayvon, o'simliklardan dekorativ mavzu usulida ifodalashi mumkin.

O'zbek kitob grafika san`atining rivojlanishi XX asrning 40-50 yillariga to`g`ri keladi. Kitob grafikasining ko'zga ko'ringan keksa vakillari V.Kaydalov, I.Ikromov, M. Shchivorskylardir.

Keyingi paytda *T.Muhammedov*, *A. Siglensiv*, *A.G`ulomov*, *M. Kacharov*, *I.Vohitov* kabi iste'dodli grafika san`ati rassomlari, o`zlariga hos ser mazmun ijodlari bilan o`zbek kitob gafikasi san`atini rivojlanishiga o`z hissalarini qo`shib kelmoqdalar.

**Gravyura** - grafika turlaridan biri bo`lib, “*Gravyura*” fransuzcha so`z bo`lib “*kesish*” ma`nosini bildiradi. Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, yog`och, lenolium, tosh kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qog`ozga ko`p tirajda ko`chiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yog`ochdagisini ksilografiya, lenoliumdagisini linogravura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi.

Hozirda grafikaning o`ziga hos usullariga yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Bulardan biri “*Monotipy*a” bu usulda ijod qilish ham bolalarga o`zgacha zavq bag`ishlaydi.

“*Monotipy*a” grekcha so`zdan olingan bo`lib, mono – *bir*, turos – *bosma* izlar ma`nosida ishlatish mumkin. Ishlash jarayoni quyidagicha tekis plastinka (plastmassa, suv shirimaydigan tekis yuza) ustiga kerakli suv bilan qorishadigan bo`yoq surtiladi, so`ngra pahta o`ralgan tayoqcha bilan sur`at yuzaga ishlanadi, so`ngra yuzaga qog`oz tekis bosib olinadi qog`ozga yuzadagi tasvir o`tadi. Bu jarayondan keyin qog`ozdagi tasvirga qo`shimcha ishlov ham berish mumkin.

Plakat - tomoshabinga tezda ta`sir etuvchi bir necha ranglar ishtirokidagi grafik tasvirdir. Plakat san`ati tasviriy san`atning boshqa turlaridan mavzuning o`tkirligi, dolzarbligi va ranglar erkinligi bilan ajralib turadi. Plakat san`ati grafika kabi refleks, “yarim ton” qora bo`yoq va oq qog`oz bilan soya yorug`ini ifodalaydi, shakllanadi. Bunda asosan oq va qora “konrastlar” chiziq va kontur muhim rol o`ynaydi.

Plakat san`ati rus rassomlari tomonidan 1930 - 1940 yillarda O`zbekistonda 1940 yillardan keyin rivojlandi. Odam qiyofasi tasvirlangan plakat boshqalarga nisbatan ajralib rassomdan chuqur bilim va mutahassislik mahoratini talab etadi.

Plakat tasviriy san`atning eng ommaviy, eng ta`sirchan turi bo`lib, unda asosan kundalik hayotning muhim mavzulari yoritiladi. Bu janr aslida Fransiyada paydo bo`lgan. “Plakat” so`zining ma`nosi e`lon demakdir. Dastlab varaqqa, e`lon, reklama sifatida qo`llanilgan. Keyinchalik ta`sir kuchini oshirish maqsadida yaqqol tashlanib turadigan rangli bo`yoqlar bilan qilichdek o`tkir, ta`sirchan, jumlalar, so`zlar bilan to`ldirilgan san`at asarlari darajasiga ko`tarildi.

Plakat kishi ongiga zudlik bilan yetib borishi, ta`sir qilishi lozim. Plakat voqya, hodisalarni asosiy kompozitsiya ta`sirini va uning g`oyasini ifodolovchi tekisdan iborat bo`lib, tashviqot va targ`ibot vazifasini o`taydi. Shuningdek mazmun va maqsad hamda undagi mavjud matn aniq va tushunarli bo`lishi kerak.

Plakat turlari siyosiy, reklama, tashviqot sifatida bo`lishi mumkin. Shu bilan birga plakatni shartli ravishda ikki guruhga bo`lish mumkin.

1. Naqshinkor yozuvli plakatda matn asosiy o`rinni egallaydi qolgan joylari naqsh bilan to`ldirilgan bo`ladi. Bunday kompozitsiya yechimi chaqiriq plakatlarda ishlataladi.

2. Tasviriy - yozuvli plakatda asosiy o`rinni mavzuli tasvir egallaydi, matn esa asosiy fikrni amaliy ifodalaydi.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan so`ng plakat tayyorlashda qo`l mehnatidan ko`ra tehnika vositalari orqali “Festr” plotr tehnika vositalaridan keng foydalanish rivojlandi. Bu jarayon Respublikamizda tashkil etilgan “Tasviriy oyna” ijodiy birlashmasi tomonidan aniq fotoplakat kompozitsiyalari turli hajmlarda tashqi ta`sirlarga dosh beradigan ma'terial va bo`yoqlarda ishlash yo`lga qo`yildi. Bu zamonaviy plakat, pannolar ishlashda respublikamiz turli sohalardagi jarayonlar hamda yutuqlarni aks ettiruvchi mavzuli plakatlar bajarildi.

Grafika san`atida estamp ham katta o`rinni egallaydi. “estamp” Fransuzcha so`z bo`lib, “shtamplash” ma`nosini bildiradi. Estamp yaratish uchun avvalo tasvir mahsus asboblar bilan qattiq materialga (tosh, yog`och, linolium) o`yish orqali tushiriladi. So`ngra o`yilgan material ustiga bo`yoq beriladi va undan qog`ozga tasvir olinadi.

Estamp uchun shu narsa harakterliki, unda gravyura bosmadan chiqqandan so`ng rasmga ba`zi bir tuzatishlar kiritiladi va asar tagiga o`z imzosini qo`yadi.

Grafika tehnikasining keng tarqalgan turlaridan yana biri bu illyustrasiyalardir. Qadim - qadimdan tasviriy san`at kitob bezagi bilan chambarchas bog`langan holda rivoj topgan, o`rta asrlarda sharq va g`arb mamlakatlarida yaratilgan kitoblarning deyarli ko`pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmuni o`z aksini topar edi. Keyinchalik kitob bosish dastgohlari ihtiyoq qilingandan so`ng illyustrayiyalar kitoblarda yanada katta o`rin egallay boshladi. Illyustraciyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo`lishiga yordam beradi. Ikkinchidan adabiy obrazlar - aniq va jonli bo`lishiga, o`quvchining yodida yahshi saqlanib qolishga hizmat qiladi.

Rassom biror bir adabiy asarga illyustrasiya ishlashga kirishishdan avval, mazkur asarni yahshilab o`rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqeal sodir bo`layotgan davrga doir materriallarni ham to`plashida, o`sha davr odamlarining madaniyati va turmushini, mamlakat tabiatini bilib olishi kerak bo`ladi.

Karikatura ham grafikaning bir turi hisoblanadi. Unda hayotdagি ayrim salbiy hodisa va ko`rinishlar, shahslar hajviy yoki hazil tarzida rasmlar orqali tanqidiy tasvirlanadi.

Grafikaning reklama, afisha, etiketka, o`rama (upakovka) kabi turlari ham keng tarqalgandir. Gazeta, jurnal grafikasi ham shriftlar bilan bog`liq bo`lib, amaliyotda keng qo`llaniladi.

### Rangtasvir

Rangtasvir deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytildi. Bu tur uchun asosan bo`yoqlar - moyli bo`yoq, akvarel, guash, tempera shuningdek rangli qalamlar, ko`mir, qalam, pastel, sous sangina kabi badiiy materiallar bilan ishslash harakterlidir.

Rangtasvir asarlari qog'oz mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rang tasvir ishida avvalo uning rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya nur va soya rang asosiy o'rnini egallaydi. Rangtasvir asarlari bajarilishi texnikasi jixatdan turlituman bo`lib ular moybo`yoqli, temperali, freskali, mozaykali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli bo`lishi mumkin. Rangtasvirni quyidagi turlari mavjud:

- 1) Dastgohli rangtasvir
- 2) Monumental (Mahobatli) rangtasvir
- 3) Miniatyura (Mo'jaz) rangtasvir
- 4) Dekorativ (Bezakli) rangtasvir
- 5) Teatr-dekorativ (Bezakli) rangtasvir

Dastgohli rangtasvir deyilganda rassomlar maxsus asbob dastgoh (malbert) yordamida ishlaydigan juda katta hajmga ega bo`lmagan suratlar tushiniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo`lmagan o'lchovda yuqorida qayd qilib o'tilganidek mato, karton, oyna faner kabi tekis yuzali materiallarga bo`yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rangtasvirda ko'pincha moyli va akvarel bo`yoqlardan qo'llaniladi.

Dastgohli rangtasvir (Jivopis') ishslash jarayonidan oldin surat ishlanadigan tekis buyumni guruntovka qilinadi. Shundagina bajarilganishni sifati buzilmaydi. Uzoq yil saqlash imkon bo'ladi.

Monumental rangtasvir atamasi monumental (mahobatli) ya'ni katta o'lchovli rangtasvir ma'nosini anglatadi va bu turdag'i asarlar ko'pincha binolarning ichki va tashqi devoriga tempera bo`yoqlari bilan ishlanadi. Monumental rangtasvir asarlari ham o'z navbatida to'rt turga bo'linadi.

-freska, mozayka, vitraj, panno kabi turlardir.

Freskalar asosan bino devorlarining o'ziga, shuningdek, unga matolar yordamida ishlanadi.

Mozayka - turli tabiiy ikkilamchi materiallar - rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik matolardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi.

Mozayka ishlashda smal'ta (maxsus rangli tosh) ning o'rni ancha samarali, smalta materiallaridan ishlangan asarlar ancha uzoq muddatga hamda tashqi

ta'sirlar (quyosh, suv, shamol) ga chidamliligi bilan ajralib turadi. Mozayka tosh va boshqa turdag'i materiallarni devorga, yuzalarga o'rnatishda sement, maxsus tayyorlangan kleydan ham foydalaniladi.

Vitraj esa binolarning deraza, eshik oynalari ustiga ishlash uslubidir. Katta hajmdagi ya'ni bir necha qavatli binolar uchun tayyorlangan vitrajlar temir karkas yordamida shakllar tayyorlanadi. Shabl harakteriga mos ravishda yorug'lik o'tkazuvchi ishlov berilgan rangli shakllardan ham foydalaniladi.

Miniatyura (mo'jaz) rangtasvir deyilganda bejirim, juda kichik, jajji, nozik san'at asarlari tushiniladi. Minyaturna rangtasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarxal harf, illyustratsiyalardan iborat bo'lgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movaraunnahrda katta shuxrat qozongan. Hozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki turli quticha, tomoshaqovoq, uy-ro'zg'or buyumlari, esdalik uchun tayyorlangan kulolchilik buyumlarini bezatishda ham keng qo'llanilmoqda. Shuningdek bu tur mustaqil san'at sifatida yildan yilga ommalashib bormoqda.



Dekorativ rangtasvir asarlari mustaqil amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu binolarning ichki va tashqi devorini bezashda keng qo'llaniladi.

Ular panno shaklda, shuningdek, quticha, patnis, sandiq, shkaflarni bezashda qo'l keladi. Bino ichini bezatishda xizmat qiladigan naqshlar, frizlar, namoyon kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.

Teatr dekorativ rangtasviri spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan grim, saxna jixozlari bilan bog'liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnaning yoritilishi va ranglarga alohida e'tibor qaratadilar. Spektakl bezaklari unda ifodalangan voqeа, sodir bo'layotgan joy, davr, muhit to'g'risida tomoshabin tasavvurini boyitadi, hozirda yoritish masalalarida juda qulay texnika vositalari, turli (projektorlar) yoritkichlar yordamida rang muhitini yanada chuqur yorqin ko'rsatish imkonи paydo bo'ldi. Xozirgi yangi yoki an'anaviy teatr dekoratsiyasi voqealarini idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi.

Tasviriy san'at nazariyasi va amaliyotida akademik rangtasvir iborasi ham ishlataladi. Akademik rangtasvir o'quv jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali rang tasvir shularni nazarda tutadi.



**Sahna teatr dekoratsiyasining eskizi**



**Teatr sahna dekoratsiyasining maketi**



**Teatr sahna dekoratsiyasi rassomlari ish jarayonida**



**Sahna bezagi va liboslar dizayni**

**Haykaltaroshlik** ham huddi rangtasvir kabi hayotiy voqea va hodisalarни turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalaydi. Haykaltaroshlikda tosh, metal, gips, yog'och, vosk (mum), sum, shamat (tuzga o'xshash kristal) kabi materiallar keng qo'llaniladi. Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, qo'yish orqali bajariladi.

Haykallarning asosan ikki turi mavjud bo'lib, ularning birinchisi to'liq yumaloq (har taraflama ko'rish mumkin) haykallar. Ikkinchisi esa relefli-bo'rtma haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomonidan ko'rish mumkin bo'lsa, relefli haykallarni faqat bir tomonidan, ya'ni oldidan ko'rish mumkin. Relefli haykallar tekislik ustiga ishlanib, yuzadan qisman bo'rtib chiqqan bo'ladi.



1. **Barel'ef.** Barel'efda tasvir qalinligining yarmidan kami bo'rtib chiqqan bo'ladi. Bunda tasvirlangan holatni yordamchi, asosiy qismlar holatida qo'llash mumkin.





2. **Gorel'ef.** Gorel'efda esa u qalinlikni yarmidan ko'prog'i bo'rtib turadi, ya'ni dumaloq haykal bilan solishtirilsa holatni tasvirlashga qarab uchdan ikki qismi ko'rindi. Bir qismi esa ko'rinxaydi.





Haykaltaroshlikda ma'lum miqdorda rangdan ham foydalaniladi. So'ngi yillarda asalari mumi (vosk) dan ham haykallar ishlash texnikasi qo'llanila boshladi. Bunda rangli mumlardan keng foydalanilmoqda.

Haykallar shakl va mazmun jixatidan realistik, dekorativ va abstract (mavhumlik) yo'naliishlarida bo'ladi.

**Realistik haykallarda** odam, hayvon va boshqa tasvir obyektlari haqiqiy ko'rinishda ifodalansa, dekorativ haykallarda ular stillashgan (stilizatsiya), ya'ni shakl, o'lchov, proporsiya va boshqa jixatlardan ma'llim darajada o'zgartirilib ifodalananadi. Abstract haykallardagi obyektlar shakl, mazmun, o'lchov va boshqa jixatlardan mavhumlashtrilgan holda tasvirlanadi.

Haykaltaroshlar o'z faoliyatlarida ish quroli sifatida quyidagi asboblardan foydalanadilar: maxsus dastgoh, bolg'a, bolta, stek, sirkul, iskana va boshqalar. Iskanalarning to'g'ri burchakli, uchburchakli, trapetsiya burchakli, chuqur shakl beruvchi yoysimon turlari bo'ladi. Shuningdek, haykal loyi ustidagi ortiqcha qismini tortib olish uchun qattiq metallardan tayyorlangan doira, ellips, uchburchak, to'rtburchak, trapetsiya shaklidagi sidirgichlar qo'llaniladi. Shuni ham



qayd qlish lozimki, haykaltaroshlikda qo'llaniladigan iskanalar trli o'lchovda tuzilishda va shaklda bo'ladi.

Haykaltaroshlikning dasgohli monumental, yodgorlik, (memoryal) dekorativ va monumental-dekorativ turlari mavjud.




**Dastgohli haykaltaroshlik** iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh) ga o'rnatib ishlanganligidan kelib chiqqan. Bunday haykallar mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, ular jamoat binolari va uy joylarni ichki qismini, shuningdek, istiroxat bog'lari, muzey va ko'rgazma zallariga mo'ljallab yaratiladi.

Dasgohli haykallarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ularda tasvirlanayotgan obyektlarning haqiqiy, ya'ni hayotdagি o'lchamda yoki undan kichik bo'lishligidir. Dastgohli haykaltaroshlik asarlari yaqindan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, unda portret asosiy o'rinni egallaydi. Haykaltaroshlikda timsolning faqat bosh qismi va yelkasi tasvirlanadi. Bunday asar **byust** deyiladi. Agarda odam bo'ybasti bilan tasvirlansa, bu figurali portret deb yuritiladi. Shuningdek, yarim figurali portretlar ham bo'ladi.



**Mahobatli haykaltaroshlik** iborasi monumental, ya'ni yirik, mahobatli haykal ma'nosini anglatadi. Ular maydonva ko'chalarga keng xalq ommasi uchun mo'ljallab o'rnatiladi. Bunday haykallar tarixiy voqealar yoki alohida mashxur shaxslarni nomlarini abadiylashtirish maqsadida o'rnatiladi.

Monumental haykallar uzoqdan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, umumlashtirilgan tarzda atrof muxit bilan bog'liq holda yaratiladi. Monumental haykaltaroshlikning alohida yo'nalishlaridan biri bu monumental dekorativ haykaltaroshlikdir. Bu yo'nalishdagi asarlar ham monumental haykaltaroshlik asarlari kabi keng xalq



ommasi uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, ko'proq bezak vazifasini bajardi.

**Mahobatli-dekorativ haykallar** ko'cha va maydonlarni, bino va istiroxat bog'larini, favvoralarni (fantan) bezashda ishlatiladi. Ularda odam, hayvon, baliq va qushlar tasviri ifodalanadi. Bunday haykallar yirik o'lchamda bo'lganligi sababli, ularni bemalol uzoqdan ko'rish mumkin. Mahobatli asarlarni umumiylig o'lchami, hajmi, proporsiyalari tevarak-atrof, tabiat va binolarga moslab ishlanadi.

Mahobatli - dekorativ haykallar garchi mahobatli bo'lsa-da, ular ham to'liq hajmli va relefli qilib ishlanishi mumkin.



### **Plastik haykaltaroshlik**

- haykaltaroshlikning bu turi sifatida monumental haykallarda, yodgorlik haykallarida, shuningdek binolarning ichki va tashqi bezak ishlarida keng qo'llaniladi. Ular o'lcham jihatidan kichik bo'lib, mustaqil amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Maxsus loydan ishlangan kichik o'lchamdagagi o'yinchoq haykalchalar ham plastik dekorativ haykallar hisoblanadi. Ularni ba'zan mayda plastika deb ham atashadi.

Bolalarni ijodiy, abstrakt, mantiqiy fikrlashga, ayniqsa ijodiy qobilyatlarini o'stirishda fazoviy tasavvurlarni o'stirishda plastik haykallar ishlash muhim ro'l o'ynaydi. Bu mashg'ulotlarning yana o'ziga hos jihatlaridan biri


bolalarda plastilin, loy, stek bilanto'g'ri munosabatda bo'lishi loy (plastilin) parchalarini o'zaro qo'shish orqali haykal ishlash, shuningdek, birgina yirik loy bo'lagidan ortiqcha joylarini olib tashlash orqali haykal hosil qilish metodikasini to'g'ri o'zlashtirib olishga qaratilgandir.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning yosh husuiyatlarini hisobga olib, o'zbek kulolchiligiga hos bo'lgan mayda haykallar yassashga oid ishlarda namunalar ko'chirtirish, bu san'at turning milliy badiiy an'analarini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dekorativ haykaltoroshlikning yana bir turi borki, ular kichik o'lchamdagagi metal, marmar, yog'och, chinni kabi materiallardan ishlanadi. Ular ham dekorativ, ham realistik tarzda ishlanishi mumkin. Bunday haykallar kitob javonlari, yozuv stollarini bezatadi. Ayrim holda sovg'a sifatida foydalanish ham mumkin.

## **2-mavzu RASSOMNING ISH QUOLLARI.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning tasviriy faoliyatlarining hisobga olgan holda mavzular, mashg'ulotlar qanday bajarilishi haqida malumot berish maqsadga muvofiqdir.




Ma'lumki , bolalarda tasviriy san'atning tasviriy faoliyatga, hususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshdan bizga ma'lum. Shunisi harakterlikni, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi. 1-2 daqiqa, ko'pi bilan 4-5 daqiqada har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasada, biroq mazmun biron bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni, o'z iqtidorlariga yarasha, uning harakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo'yoqlar bilan ishlash ularga ma'lum qiyinchiliklar



bolalarda katta qiziqish uyg'otadi.

Ushbu mavzu yuzasidan ya'ni rassomning ish qurollari masalasida quyidagilarni ko'rib o'tishimiz mumkin.

**Qalam va moyqalamlar.** Rassomning asosiy ish qurollaridan biri hisoblanadi. Qora graftli qalamlar asosan ikki turga bo'linadi: qattiq va yumshoq turlaridir. Qattiq va o'rta yumshoqlikagi qora qalamlar deyarli hamma sohalarda ishlashi bizga ma'lum. Qalam tularidan to'g'ri foydalanish chizma yoki qalamtasvir bilan shug'ullanuvchilar uchun ahamiyatlidir.



Qalam tasvir yoki homaki eskizlar ishlashda yumshoq qalamdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun qog'ozlar turlariga juda katta etiborni qaratish lozim. Yoqsa chizish jarayonida yetarli tasvir ko'rinishi bo'lmaydi. Ishni yakunlashgacha bo'ladigan jarayon o'ta sifatsiz zerikarli bo'ladi.

Qalam turlariga kelsak juda ko'p qulayliklarga ega qalam turlari hamda shakllari ham turli ko'rinishda. Bolalar suvrat chizishlari uchun dumaloq shakldagi emas balki qirrali qalam bilan ishlash unimliroq bo'ladi.

Yumaloq qalam bolalar qo'liga hohishiga qarab qalamni harakatga keltirishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Qirrali qalam esa ushlash uchun juda qulay, qalama qo'lidan chiqib ketishi, tushirib yuborish hollari kam uchraydi.

Qalamlarni uchlash uchun xavfsiz uchlog'ichlardan foydalanish hamda qalamlarni qalamdonda saqlash tavsiya etiladi.

**Mo'yqalamlar.** Turli ko'rinishga va bir necha turlarga bo'linadi. Akvarel bo'yog'i bilan qog'ozga ishlash uchun mayin mo'yli, yumshoq shakldagi, uchki tomoni ingichkalashib boradigan mo'yqalamlardan foydalanish kerak. Sintetik mo'yqalamlardan tayyorlangan moyqalamlar akvarel bo'yog'I bilan ishlash uchun tavsiya etilmaydi. Ishlash jarayonida moyqalamni biror idishga moy tarafi bilan solinmaydi, bunday hollarda moy qismi buklanib moyga ziyon yetishi mumkin. Saqlash zaruriyati tug'ilganda moyqalamni suv bilan toza yuvib, moylar orasida ortiqcha suv qoldirmay bir parcha qog'ozga o'rab qo'yish mumkin. Shunda

tug'dirishi sababli ulardan foydalanishni aytaylik hush ko'rmaydilar. Lekin rassom ishslash uchun kerak bo'ladigan asbob uskunalar, turli yorqin ranglar bilan ishslash

moyqalam shakli buzilmaydi. Akvarel bilan ishlash uchun tanlangan moyqalamni moyli bo'yoqlarga, sanoat boyoqlariga erituvchi suyuqliklarga solish yuvish mumkin emas.

**Akvarel bo'yoqlar.** Akvarel' bo'yoqlar yelimli bo'yoqlar qatoriga kiradi. Akvarel' lotincha so'z bo'lib "Akva"- suv demakdir, bu bo'yoq suvda tez eriydi. Akvarel' bo'yoqning bog'lovchisi o'simlikdan olinadigan rangsiz elim-gummarabik va dekstrindir, bular suvda oson eriydi. Akvarel' bo'yoqqa yana glisirin va qand ham qo'shiladi, bo'yoq mayin va yumshoq bo'ladi. Glisirin bo'yoqning tez qurib qolishiga yo'l qo'ymaydi, nam saqlab turadi. Akvarel' bo'yoq boshqa bo'yoqlarga nisbatan yorqin toza va jozibalidir.



**Rangli qalamlar.** Rangli qalamlar rangli rasmlar ishlashda, bezak ishlari uchun juda qulay ish quroli hisoblanadi. Rangli qalamlar bir necha turga bo`linadi.



Rangli qalamlar etti hil spektor ranglari asosida olti hildan yigirma to'rt hilgacha bo'ladi. Rangli qalamning qulayligi shundaki bir necha bosqichda shtrihlar orqali tasvirni mukammal, shakldor bajarish imkoniyati mavjud.

**Guash bo'yoqlar.** Guash ham suvda eriydigan bo'yoq bo'lib, uning asosiy tarkibiga bog'lovchi moddasi dekstrin va glesirindir. Guashlar bilan bo'yagan sirtlar qurigach rangi biroz ochlashadi va jilosiz bahmalsimon tusga kiradi. Guash bo'yoqlar shisha, tunika va plastmassa idishlarda, kichkina plastmassa idishlarda nabor holatida bir necha ranglardan (6, 12, 24, 44 hil) iborat va pastasimon (tubik) idishlarda bo'ladi.

Guash bo'yoqlari bilan ko'rgazmali vositalarni e'lolar, chaqiriqlar, tabrik matnlari, devoriy gazeta va vahokazolarni badiiy bezashda akvarel' bo'yog'i bilan qo'shib ishlatish yahshi samara beradi.

**Stakan** ham rassomning ish quollaridan biri. Suv uchun idish turli materiallardan bo`lishi mumkin. Metall, plastmassa, sopol chinni kabilar shular jumlasidandir.

|                              |           |
|------------------------------|-----------|
| Bolalar                      | tasviriy  |
| ijodida                      | shaffof   |
| idishlardan                  |           |
| foydalanihlari maqsadga      |           |
| muvofiqdir.                  | Bunda     |
| foydalanihayotgan suv        |           |
| sifati nazorat ostida        |           |
| bo`ladi. Suv turli buyolar   |           |
| tushishi ta`sirida tiniqligi |           |
| buziladi.                    | Natijada  |
| ishlanayotgan rangtasvir     |           |
| kerakli                      | ranglarni |
| ifodalanishi                 |           |
| qiynlashadi.                 |           |



**O'chirgich** Qalamtasvirda, badiiy bezak ishlarida o'chirg'ichning ikki hili ishlatiladi. Yumshoq o'churg'ichlar elastiklik holati juda yahshi bo'ladi. Grafit, rangli qalam bilan chizilgan chiziqlarni qattiq o'chirg'ichlar esa tush hamda siyoh bilan e'zilgan yoki chizilgan chiziqlarni o'chirishga mo'ljallangan.

Qattiq o'chirg'ich maydalangan shisha kukiniga, yumshoq o'chirg'ich esa maydalangan marmar kukuniga faktis suyuqligi aralashtirib tayyorlanadi. Hozirda turli ishlab chiqaruvchi korhonalar tomonidan qog`oz turlariga mos ravishda o'chirg'ichlar tayyorlanmoqda o'ta issiq va quyoshdan ehtiyyot qilish maqsadga muvofiqdir.

**Rangli qog`ozlar.** Rangli qog`ozlar asosan badiiy bezak ishlarida keng foydalaniadi. Frontal kompazitsiyalarda aplikatsiya usullaridan foydalaniish keng tarqagan. Bu usuldan foydalinishda kompazitsiya qog`oz, matoh, karton narsalarga rang-barang qog`oz yopishtirilib (elimlab) tayyorlanadi. Rangli qog`ozlarni tayyorlashda guash, akvarel buyog`idan ham foydalaniish mumkin. Aplikatsiya usuli orqali rangli qog`ozlardan mavzuli kompazitsiyalar devoriy gazetalar, ko'rgazmali quollar hamda kichik o'lchamli grafik ishlarni bajarish uchun foydalaniadi.

Rangli qog`ozda tayyorlangan aplikatsiyalar o`zining yorqinligi bilan ko`zga yaqqol tashlanadi va bu usul bolalar ijodi uchun qulay va osondir. Aplikatsiyalar

kichik va o`rta yoshdagi bolalar bilan ishlashda ayniqsa qiziqarli va unumli bo`ladi.

### **Politra.**

“Politrasи yo`q rassom o`ziga ishonmagan quolsiz jangchiga o`hshaydi” degan edi, 19 asrda ijod qilgan fransuz rassomi E.Delakrua. Politra qadimgi Misrda bo`yoqlarni qorish uchun dumaloq, turtburchak shakllarda ustalar tomonidan yog`och tekis sirtli tahtalar ko`rinishida yasaganlar. Politra so`zi Francuzcha “Palevtr” lotin - poleterum rus “plastinka” “doshechka” nomi bilan atalgan.



Hozirda politra turli bo`yoqlar uchun turli shakllarda tayyorlanmoqda, plastmass, laklangan fanera (tahta material) kabilardan iborat quyuq bo`yoqlar uchun tekis sirtli suyuq (akvarel') bo`yoqlari uchun bir necha botiq shakldagi joylardan iborat. Plastmassa politralar ishlab chiqarilmoqda. Akvarel' uchun ishlab chiqarilgan politralar qorilgan akvarel' bo`yoqlar atrofga oqib ketmasligini ta`minlaydi. Ayrim hollarda politra o`rniga yassiroq turdagи chinni likopcha, tarelka ishlatilgani ma`qul, chunki likopchaning rangioq bo`lsa, qog`ozga o`hshab ketadi. Topilgan rang qog`ozga surtilganda hech qanday o`zgarish yuz bermaydi.

### **3- dars. CHIZIQLAR VA SHAKLLAR.**

Chiziqlar va shakllarni bajarish orqali rassom bajarilishi zarur bo`lgan barcha san`at turlarini to`g`ri ifodalashga xarakat qiladi. Xar bir san`at turlarini talab darajasida bajarish uchun avvalombor qalamtasvirga murojaat qilamiz.


Qalamtasvir ishlash uchun maxsus ish qurollari zarur, ular quyidagilardir: Qog`oz asosiy material xisoblanadi. Qog`oz albatta oppoq, yetarli darajada qalin va pishiq bo`lishi kerak. Vatman qog`ozlari turlicha bo`lishini unutmaslik kerak. Vatman qog`ozlar vazniga (gr) qarab turlarga bo`linadi. Qalamtasvir uchun eng yaxshisi “Goznak” tamg`asi tushirilgan bo`ladi. “Yarim Vatman” (Polvatman) xamda Vatman. Gramm xisobida 120 gr.dan 240 grammgacha bo`lishi mumkin.

Qadimgi Misrda paprus yaproqlariga chizilgan. Qadimgi Pergam davlatida xayvon terisi qog`oz o`rnini bosgan. U “pergament” deyilgan. Lekin bunday

qog'ozlar juda xam qimmat bo'lgan, chunki bitta kitob uchun kamida bir necha yuz mol terisi ishlataligani.

Qog'oz SHSH asrda xitoyliklar tomonidan kashf etilgan. Bu qog'oz matoning mayda bo'laklaridan tayyorlangan. Xozirda esa qog'oz maxsus qog'oz fabrikalarida ishlab chiqariladi.

**Qalam**. Oddiy qora qalam. Xozirgi kunda oddiy qora qalamning juda ko'p turlari mavjud. O'rtacha yumshoq qalamlardan tortib juda qattiq qalam turlari mavjud. Bular "T", "2T", "N", "2N (qattiq) "M", "2M", "3M" (yumshoq) V, T, 2T, M, 2M, N, 2N, NV, V, 2V va boshqalar.



Tarixga nazar tashlasak, ibtidoiy davrda odamlar g'orlarga, tog'u toshlarga turli tasvirlar chizganini ko'rish mumkin. Ular biron bir uchli qattiqroq narsa bilan g'or devorlarini tirnab, shakllarni, rasmlarni chiziqlar orqali ishlaganlar.

Taraqqiyot tufayli rasm chizish asbob-uskunalari xam takomillashib bordi. oddiy qora qalam xam shular jumlasidandir. XVI asrda Angliyada grafit konidan topilgan tayo'yichalarda rasm chizib ko'rishgan, shunda ular qog'oz yuzasiga juda nafis va chiroyli chiziqlar tushira olish xususiyatiga ega ekanligi ma'lum bo'lgan. Oddiy qora qalam XVII asrning oxirida frantsuz olimi N.Kante tomonidan kashf etilgan.


"T" xarfi bilan belgilangan qalamlar "Tverdiy" (Rus)-qattiq degan ma'noni bildiradi. Odatda turli buyumlarga rasm chizishda qattiq qalam qo'llaniladi.

"M" belgisi "myagkiy" (rus) – yumshoq degan ma'noni bildiradi va undan ko'proq xomaki chizmalar yoki kompozitsiya eskizlari tayyorlashda foydalaniladi.

**Ko'mir tayoqchalar.** Ko'mir tayoqchalari xomaki tasvir chizishda ko'proq ishlataladi. Ko'mir tayoqchalarni uy sharoitida xam tayyorlash mumkin. Ko'mir tayoqchalarini tayyorlashning oddiy uslubi quyidagicha: buning uchun tok yoki atirgulni qizarib, yaxshi pishgan novdasidan 5-10 tasi bo'yicha 10-12 santimetr (diametri 8-9m.m) qilib kesib olinadi. Biron maxsulotdan bo'shagan temir idish (banka)ni olib, ichini yaxshilab tozalab, quritib qo'yamiz. Bu idish ichiga tok novdalarini tik xolatda joylab, idishni qum bilan to'lg'azamiz. O'zini loy bilan qalinroq qilib suvab, kichikroq bir teshikcha qoldirish shart. Keyin tandir yoki o'choq oloviga qo'yib, qizdiramiz. Cho'qqa bo'yi barobar ko'mib qo'ysak xam bo'ladi. Temir idish qizishi davomida qoldirgan teshikchadan olovsimon ko'kish tutun chiqa boshlaydi. Ko'kish tutun tugashi bilan idishni olovdan (cho'g'dan) olish kerak. Tayyorlangan ko'mir qalamcha bilan qog'oz yuzasiga tasvir tushirish mumkin. Tasvir o'chib ketmasligi uchun ozgina shakarli suv tayyorlab, tasvir ustiga yengil purkaladi. SHuni unutmaslik kerakki, tok qalamchalari juda zikh joylashishi kerak. Ularning xammasini bir biriga zikh qilib bog'lab qo'ysa xam bo'ladi. Ota bobolarimiz bunday qalamchalardan kulolchilik ishlarida foydalanishgan.

Rossiyada esa oq qayin daraxtning shoxchalaridan foydalaniladi. Zavodlarda esa 3000 S issiqlikda xavosiz joyda 3 soatdan 5 soatgacha qizdirish orqali ko'mir qalamchalari tayyorlanadi.


Chiziqlar va shakllar mavzusi yuzasidan quyidagicha qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni rassom ish qurollari qalam qog'oz va xokazolardan tashqari qog'ozda ishlash uchun albatta rejashet bo'llishi zarur.




kesib olinadi. Biron maxsulotdan bo'shagan temir idish (banka)ni olib, ichini yaxshilab tozalab, quritib qo'yamiz. Bu idish ichiga tok novdalarini tik xolatda joylab, idishni qum bilan to'lg'azamiz. O'zini loy bilan qalinroq qilib suvab, kichikroq bir teshikcha qoldirish shart. Keyin tandir yoki o'choq oloviga qo'yib, qizdiramiz. Cho'qqa bo'yi barobar ko'mib qo'ysak xam bo'ladi. Temir idish qizishi davomida qoldirgan teshikchadan olovsimon ko'kish tutun chiqa boshlaydi. Ko'kish tutun tugashi bilan idishni olovdan (cho'g'dan) olish kerak. Tayyorlangan ko'mir qalamcha bilan qog'oz yuzasiga tasvir tushirish mumkin. Tasvir o'chib ketmasligi uchun ozgina shakarli suv tayyorlab, tasvir ustiga yengil purkaladi. SHuni unutmaslik kerakki, tok qalamchalari juda zikh joylashishi kerak. Ularning xammasini bir biriga zikh qilib bog'lab qo'ysa xam bo'ladi. Ota bobolarimiz bunday qalamchalardan kulolchilik ishlarida foydalanishgan.

Rossiyada esa oq qayin daraxtning shoxchalaridan foydalaniladi. Zavodlarda esa 3000 S issiqlikda xavosiz joyda 3 soatdan 5 soatgacha qizdirish orqali ko'mir qalamchalari tayyorlanadi.

Chiziqlar va shakllar mavzusi yuzasidan quyidagicha qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni rassom ish qurollari qalam qog'oz va xokazolardan tashqari qog'ozda ishlash uchun albatta rejashet bo'llishi zarur.






**Rejashet.** Rasm chizish uchun maxsus rejashet tayyorlashni va vatman qog'ozni xo'llab tortishni xam nazariy xam amaliy bilish rassom uchun juda zarur. Tayyorlangan vatman qog'ozi rejashetga nisbatan 2-3 sm kattaroq bo'lib, chetlari buklangan. Buklangan tomonlaridan tashqari, qog'ozning ichki qismi mo'yqalam yoki bir parcha paralon bilan xo'llab chiqiladi. Qog'oz suvni o'ziga tortgandan so'ng u rejashet ustiga qo'yiladi va quruq buklangan tomonlari PVA (kley) yelimi bilan rejashet reykolari yopishtiriladi xamda quritiladi



## **Chiziqlar shakllar chizishga doir mashg'ulotlar**


Qog'oz yuzasiga qo'lni bukmasdan buyumni tasvirlash ancha qulay iloji boricha xotirjam bo'lishi va yengil xarakat qilib chizilayotgan buyumdan ko'zni uzmagan xolda tasvirlash zarur. Qalam, asosan, u barmoq bilan ushlanadi. Uni ushlagan vaqtida erkin ushlashga qo'lni o'rgatish kerak. Qalamni qattiqroq yoki bo'shroq bosish orqali xil chiziqlarni chizish mumkin. Tasvir chizganda qalamni bo'shroq ushlash kerak, qalam uchi tasvir chizishga tayyorlanganda, uning grafit qismini 5-6 mm, yog'och qismini esa 15-20 mm qilib yo'nish (chiqarish) kerak. Chunki bunday yo'nilgan qalam chiziqlarning aniq-ravshan ko'rinishiga yordam beradi.



iboratki, xar bir tasvir buyumlarini shakli va materiallar nur va soya orqali idrok etiladi. Xar qanday buyum turli xil egriliklar yoki teksliklar-yuzalar bilan chegaralangan bo'lib, xar xil yorug'lik sharoitida bo'ladi, ya'ni yorug'lik nurlari buyumlarga turlichal tushib, ularni yuzlarini turlichal yorug'lantiradi. Ba'zi yuzalar ko'proq boshqalari kamroq yorug'lik oladilar. Buyumlar yuzasining yorug'lanish darajasi avvalo, yorug'lik manbaigacha bo'lgan masofaga bog'liq bo'ladi. Yorug'lik manbai yuzadan qanchalik uzoqlikda bo'lsa buyum shuncha kuchsiz yorug'lantiradi va aksincha yorug'lik manbai buyumga qancha yaqin

Qalamtasvir mashg'ulotlari uchun maxsus o'quv xonasi (ustaxona) bo'lishi lozim. Bu ustaxona barcha talablarga javob berishi zarur.

Chiziqlar va shakllarning vazifasi shundan



joylashsa, u shunchalik kuchli yorug'lanadi.

Xar bir jismni shaklini to'g'ri tasvirlashga shtrix va chiziqlarni axamiyati katta. Chiziq va shtrixlar bu buyumlarni (choynak, piyola, ko'za, geometrik shakllar va boshqalar) shakliga qarab chiziqlar yo'naltiriladi shundagina chiziqlar shakl uchun xizmat qiladi.

#### 4- dars. BO'YOQLAR VA RANGLAR.



Rang tasvirni ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarning tabiatda xosil bo'lishini va tarqalishi masalalarini, ularning atrof-muxit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarni tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.



O'rta Osiyoda ranglar xaqidagi ta'limot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik va devorlarga freska pannolar ishlash bilan bog'liq xolda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik xunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etgan. Shuning uchun xar bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan ranglarni tabiatda qanday xosil bo'lishi va tarqalish xodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomi va nazariyachilari Leon Battista Alberti, Leonardo da Vinci va boshqalar rangtasvir xaqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari xaqida yozganlar. Atoqli va mashxur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gel'mgol'tslar ranglarning moxiyatini ilmiy asosda teshirganlar. Issak Nyyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likning ko'p rangli ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini xosil qilgan. Buning uchun Nyyuton quyoshning oq yorug'ligini derazadagi qora pardaning ingichka tirkishidan o'tkazgan va nur yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda xar xil ranglardan iborat keng yorug'lik dastasi ko'ringan. Ekranda ko'ringan rasmlar spektr ranglari bo'lib, ular quyidagicha joylashgan edi: qizil zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsha rang.

Oq yorug'lik aslida murakkab bo'lib, rangdorlik jixatidan shunchalik turlitumanki, bir rangdan ikkinchisiga o'tishda yana bir qator ranglar tuslari seziladi.

Spektr ranglarini yomg'ir yog'ib o'tgandan keyin osmonda paydo bo'ladigan kamalakda, favvoralardan otilayotgan suv zarralarida kuzatish mumkin. Spektr ranglarni qayta bir joyga to'rejasa, oq yorug'lik xosil bo'ladi.

Nyyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I.V.Gyote ko'proq ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtirgan. Gyote "Ranglar xaqidagi ta'limot" nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratib, iliq (sarg'ish-qizil) ranglar kishida kayfi chog'lik tuyg'usini, sovuq (xavo rang yashil) ranglar esa mawyuslik tuyg'usini uyg'otishi xaqida yozgan.



XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gel'mgolts rangshunoslik nazariyasida muxim yangilik yaratgan. Ko'p yillik tajribalari asosida xromatik ranglarni uchta asosiy alomati-rang toni (nomi), rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatgan.

Rang muammolarini o'rganishda yapon olimlari xamisha jiddiy qarashgan. Xozirda xam dunyoda yagona bo'lgan Tokio rang institutida inson qalbiga ta'sir etadigan tabiat xodisasi –rang atroflicha o'rganiladi.

Ranglarni nomini ifodalovchi, ya'ni ularning birinchi qizil, ikkinchisi ko'k, uchinchisi binafsha va xokazo deb atalishiga asos bo'lgan belgisi rang toni deyiladi.

Yuqoridagi aytilganlardan ma'lum bo'ldiki, xromatik ranglar bir – biridan uchta asosiy xossasi –rang toni (rangning o'zi), rangning och-to'qligi va to'yinganligi bilan farq qilar ekan. Spektrni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglari orasida o'xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qo'shilsa, ularning oralig'ida qirmizi ranglar xosil bo'ladi. Bu xosil bo'lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o'rtasida joylashtirib spektr tutashtirilsa, xalqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi.

Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish yashil (pstsoqi) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil xavo rang, feroza, zangori, ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab-qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni cho'g'ni eslatса, xavo rang, zangori, yashil ko'katlar esa muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farqlanish nisbiy bo'lib, xar qanday iliq xam o'ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq bo'lib ko'rinishi va aksincha, sovuq rang o'zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyulishi mumkin.



**Akvarel bo'yog'i.** Akvarel bo'yoqlar yelim bo'yoqlar qatoriga kiradi. Akvarel lotincha so'z bo'lib, "akva" – suv demakdir, bu bo'yoq suvda tez eriydi. Akvarel bo'yog'ining bog'lovchisi o'simlikdan olinadigan rangsiz yelim-bular suvda oson eriydi. Akvarel bo'yoqqa yana glitserin va qand xam qo'shiladi. Bo'yoq mayin va yumshoq bo'ladi. Glitserin bo'yoqning tez qurib qolishiga yo'l qo'ymaydi, nam saqlab turadi.

Akvarel bo'yoqlar boshqa bo'yoqlarga nisbatan yorqin va jozibalidir. Akvarel bo'yoq bilan rangtasvirda uzoqroq ishlanganda uchun bo'yoqni qog'ozga yupqa qilib surkash zarur, bo'yoq qog'ozga maxkam yopishadi va rangning tiniq chiqishiga imkon beradi. Bo'yoqni yupqa ishlatish xavo masofani ko'rsatish, chuqur soyalarni topish va temir, oyna, chinni asboblar manzarasini ko'rsatishga yordam beradi.

Akvarel bo'yoq bilan qog'ozga ishlanganda, qog'ozning oq rangidan to'g'ri va extiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Qog'oz satxiga surkalayotgan tiniq bo'yoq rang tasvir vazifasining to'g'ri bajarilishiga asos xisoblanadi.



## Guash bo'yog'i

Guash akvarel bo'yog'idan katta farq qiladi., oq qog'oz, karton, faneralarga ishlanganda yuzani tekis berkitib, ashylarning tag rangi ko'rinnmaydi, akvarelda esa qog'oz rangi bo'yoq ostidan ko'rinish turadi, guash quyuq qilib surtiladi. Guash asosan plakat panno, katta xalq amaliy san'atini bajarishda qo'l keladi.

Guash bilan ishlangan suratlar ob xavo sharoitiga qarab 30 daqiqadan 3 soatgacha vaqt ichida qurishi mumkin. Guash bo'yog'ini 2 xil ko'rinishda Sankt Peterburg zavodida ishlab chiqariladi bu plakat guashidir. Bu tashkilot ishlab chiqarayotgan maxsulot o'zining oliv sifatliligi bilan yaxshidir. Bu bo'yogni rangi yorqin, jozibali va o'z rangini yaxshi saqlaydi.

Akvarel rangtasvir ashylariqurollaridan foydalanish.

Akvarel texnikasini mukammal egallash, bu soxada malaka xosil qilish uchun birinchi navbatda ish qurollari va ashylarning shay bo'lishiga e'tibor berish zarur, qog'oz, albatta oq, yetarli darajada qalin va yuzasi g'adir-budir bo'lishi kerak. Juda silliq qog'ozga bo'yoq tekis surilmaydi. Qog'ozning yuzasi g'adir-budir bo'lsa, bo'yoq zarrachalari uning g'ovaklariga singib, quriganda mustaxkam qotadi.

Qog'ozning chekkalari bukilib ketmasligi uchun uni maxsus taxta (rejashetga) tarang qilib maxkamlash kerak. Rejashet bo'limgan taqdirda stirator yordamida tarang qilib tortib qo'ysa xam bo'ladi. Stirator- rejashetdan bir oz

kattaroq romcha bo'lib, xo'llangan qog'oz ularning orasiga qistirib qo'yiladi, qog'oz qurigach, tarang tortilib qoladi.

Akvarel bo'yoqlar bilan qog'oz ishlash uchun mayin mo'yli, yumaloq shakldagi, uchki tomoni ingichkalashib boradigan mo'yqalamlardan foydalanish kerak.

### **Akvarel bo'yoq tarkibiga kiruvchi ranglar to'plami.**

**Sariq tus beruvchi ranglar.** Limonrang kadmiy – buning asosiy xususiyati ko'rinishi jixatidan xiraroq, bir oz guash bo'yog'iga o'xshab ketadi, yorug'likka o'ta chidamli. Yorqin och sariq tusli bo'yoq. Ko'rinishi limon rangiga o'xshab ketadi, yorqin yorug'likka chidamli.

**Sarg'ish jigarrang tusli bo'yoq.** Bu bo'yoq sarg'ish jigarrang tusga ega, oxraga o'xshash, yoruqlikka chidamli.

**Oltin tusli-sariq bo'yoq.** (zolotisto - jeltaya) bo'yaluvchan xususiyatga ega, tusi juda yorqin, iliq, qog'ozga yaxshi surkaladi. Ko'rinishi jixatidan ipakka o'xshab ketadi. Bunga bargikaram yoki xavorang "BTS" qo'shilsa xind sarig'i tusiga o'xshab ketadi. Yorug'likka chidamlidir.

**Och rangli oxra bo'yog'i.** – oxra sovuq rang, quyosh nuriga chidamli, lekin oxrani temir idishga qorishtirish tavsiya etilmaydi, chunki idishda kimyoviy reaktsiya sodir bo'lib, aynib, ko'karib ketadi.

**Qizil rang.** Qirmizi rang bo'yoq (kraplak krasniy). Juda kuchli tatimli bo'yoqlardan biri, ko'rinishi-qizil malinaga o'xshab ketadi. Qog'ozga surtilganda tekis yotadi. Lekin yuvib tashlash qiyin, ishlatganda extiyot bo'lib foydalanish lozim.

Yorqin qizil rang (karmen) bu bo'yoq xam juda o'tkir, yorqin, qizil malinaga o'xshab ketadi. Lekin sovuq tus beruvchi bo'yoqdir. Aslini olganda qirmizi bo'yoqqa juda o'xshaydi.

Gilos rang bo'yoq. (kraplak fioletiviy) bu bo'yoq ko'rinishi jixatidan jigarrangga o'xshab ketadi. Quyosh nuriga chidamsiz.

**Zarg'aldoq.** Zarg'aldoq (kadmiy oranjiviy). Bu bo'yoq xam limon rang karmiyga o'xshab yorqin tusga ega, suvni kamroq qo'shib eritish kerak, qog'ozga surtilganda tekis yotmaydi. Quyosh nuriga chidamli.

**Ko'k.** Zangori rang (ultramarin). Bu bo'yoq ko'k ranglar xisobida iliq tus beruvchi rangdir, qog'ozga ishlatishda extiyotkorlik zarur, chunki o'ta kuchli, shuning uchu bo'yoqni yomg'ir yoki disterlangan suvda eritish mumkin, bo'yoq qog'ozga tekis yotadi. Yorug'likka chidamli.

**Moviy rang.** (kobalbt siniy) bo'yoq ko'rinishi jixatidan juda nozik va yoqimli ko'k rangdir. Qog'ozga surtilganda juda tekis yotmaydi, quyosh nuriga chidamsiz, quyosh nurida ko'karib yoki qorayib ketadi.

Moviy, nilobli bo'yoq. Bu buyoq juda tiniq va yorqin ranglardan biri xisoblanadi, sovuq tuslidir, extiyotlik bilan mo'yqalamga kamroq olib qog'ozga, surtish kerak quyosh nuriga chidamli.

**Yashil.** Zangori va barg ranglar.-juda tiniq bo'yoqlar, bu ikki bo'yoq bir-biridan farq qiladi, sovuq tusga ega. Quyosh nuriga chidamli.

Moshrang bo'yoq. Iliq, tiniq va yorqin ko'rinishga ega. Qog'ozga yaxshi surtiladi va osonlik bilan yuvib tashlash mumkin. Quyoshga chidamliligi yuqori.

### ***Qizil bo'yoqlar tarkibi va xususiyatlari.***

Yorqin tusli qirmizi rang (karmen). Bu buyoqning bir necha turi mavjud. Kaktus o'simligiga urug' qo'shuvchi xashorot (Koshenilъ) Yava, Aljir Ispaniyada bo'ladi. Bu xashorot jonsizlantirilib quritiladi va xavonchada yanchilib, kukun xoliga keltirilsa (karmen) nomli bo'yoq xosil bo'ladi. Bu bo'yoq quyosh nurida aynimaydi.

### ***Qirmizi bo'yoqning bir turi. (kermesoviy karmen)***

Bu bo'yoq xam karmenga bir necha nomar bilan ataladi, (kermesoviy lak, venetsianskiy aliy, lak iz polskoy koshenili, lak iz duboviy konsheli, bakan venetsianskiy, bekan aliy, chervel, polskiy lak, chervtsoviy karmenъ, chervtsovaya krasnaya kniga). Bunday bo'yoqlarni qizil dub daraxtida yashovchi qo'ng'izlarni (Shimoliy Amerikada, Janubiy Yevropada yashaydigan chuvalchang, karmeno yoki "chervlen" deb ataladi). Yaxshilab quritilib, xavonchada yanchilib, tayyorlash mumkin.

Sandal daraxtidan tayyorlangan qizil lak. – Xindiston, Filippin orollarida o'sadigan qizil sandal daraxtini tanasi maydalab 10% soda solingan qaynatilib olinadi va ajoyib qizil lok bo'yog'i xosil bo'ladi. Quyosh yorug'ligiga chidamli tiniq, yorqin bo'yoqdir.

### ***Malva daraxtidan tayyorlangan qizil purpur bo'yoq.***

Bunday bo'yoqni malъva daraxtining guli va mevasidan xamda anor po'stidan tayyorlash mumkin. Bu bo'yoq quyosh nurida tez aynab o'zgarib ketadi.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlar akvarel bo'yog'i tarkibiga kiruvchi ranglar xususiyatidir.

Oq bo'yoq- oq bo'yoq akvarel bo'yog'i tarkibiga kirmaydi. Oq bo'yoqni o'rnida oq qog'ozdan foydalaniladi. Oq bo'yoq guash bo'yog'ida, tempera, moy bo'yoq tarkibiga kiradi. Belina tsinkovaya (ruxli oq bo'yoq) nomi bilan yuritiladi.

Qora bo'yoq- neytralъnaya chernaya (tim qora rang) nomi bilan akvarel bo'yog'i yorlig'ida ko'rsatilgan. Plakat guashida Saja gazovaya (qora rang) deb yuritiladi.

Kulrang- axromatik ranglar turkumiga kiradi. Axromatik (tuzsiz) degan ma'noni anglatadi. Kulrang oq va qora rangni qorishmasi asosida tayyorlanadi.

Jigarrang bo'yoq- iliq, tiniq va yorqin ko'rnishga ega. Qog'ozga yaxshi surtiladi va osonlik bilan yuvilib ketishi mumkin. Guash va akvarel bo'yog'i tarkibida mavjud. Jigarrang tayyorlash uchun qizil, zangori, ozroq qora bo'yoqlar aralashmasidan chiqishi mumkin. Jigarrang bo'yog'i akvarel va guash qutisi yorlig'ida Mars Korichneviy deb nomlanadi.

Binafsha- akvarel guash bo'yog'ida fioletiviy nomi bilan ataladi. Binafsha rang tayyorlash uchun qizil gilos rang bilan zangori (ultramarin) xamda oq bo'yoq ishtirokida tayyorlash tavsiya etiladi.





## 5-dars. BAYROQCHA RASMINI ISHLASH.

Bayroqcha rasmini ishlashga qo'yilgan talablar

Boshlang'ich sinflarda qalam, bo'yoq bilan rasm chizish uchun maxsus mashg'ulotlar ajratish mumkin. Bunday mashg'ulotlar kuzatuvchanlikni o'stirishga, borliqni mukammal idrok qilishga, jonli va jonsiz bo'lismidan qat'iy nazar narsalarni xarakterli, tipik tomonlarini ko'ra olish xamda chiza oliga o'rgatadi. Xomaki ishlar yuzasidan o'tkazilgan darslar narsalarni to'liq ko'rish qobiliyatini tarbiyalaydi, borliqni "ko'ra bilishga" o'rgatadi.

Narsalarning o'ziga qarab rasmini yoki xayolan rasmini chizish ba'zi bolalar uchun uni idrok qila olmagan xollar xam uchrab turadi. Bu xol ko'pincha chiziladigan narsa xarakterli xolatda qo'yilmaganda yoki ko'rgazmali vositalar bo'limganda ro'y beradi. Natijada bolalar rasmlarida narsaning o'lchov nisbatlari qo'pol ravishda buziladi,

uning ko'rinishi bo'laklari, detallari o'z o'rnini topa olmaydi. Xatto ayrim bo'laklar rasmdan tushib qolish xolatlari bo'lishi mumkin.




Masalan: Bayroqcha ishslashda. Badiiy bezak ishlarida foydalaniladigan dekorativ bayroqchalar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun oson tushunarli bo'ladi. Shu tufayli chizish uchun dekorativ bayroqcha maketi, foto suvrati, bezash uchun qaerlarda foydalanilishi, turli shakllarni o'quvchilarga tushuntirish asosida ko'rsatish tavsiya etiladi.


Bayroqcha chizish mashg'ulotlarida geometrik shakllarga ega bayroqchalar sinf taxtasiga (doskasida) o'qituvchi tomonidan chizib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

1. Bayroqchalar xajmi, rangi aloxida ko'rgazmali vositalar orqali ko'rsatilishi orqali yaxshi natijaga erishishi mumkin.
2. Bayroqchani xomaki chizilgandan so'ng tasvirni mustaxkamlash maqsadga (bola yoki qizcha qo'lida, kemacha ustida, bino yoki shaxar ustiga va x.k) tez chizmalar amalga oshiriladi.
3. Bayroqchani joylashishi vertikal yoki gorizontal ko'rinishiga aloxida (bola qo'lida vertikal, maydon, archa, xona ichida gorizontal) e'tibor berib tushuntirishi yaxshi natija beradi.

Ko'rgazmali rasmda o'qituvchi tomonidan ranglarga e'tibor qaratishi kerak, yo'qsa bolalar chizgan bayroqcha rangi fon bilan aralashib ko'rish xolati buziladi. Iliq, sovuq, issiq ranglardan to'g'ri foydalanish kerak.





Tasviriy san'atni idrok qilish jarayonida o'quvchilar tasviriy san'at o'quv mashg'ulotlarida ishlatiladigan iboralarni, bo'yoq va materiallarni doimo takrorlab, tanishtirib borish kerak. Shunda o'qituvchi o'quvchilarga savol berishi orqali ularning diqqatlarini tasvirlanayotgan tasvirga, g'oyasi qaratadi.



Bunday mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi rassomlar asarlarida tasvirlangan xaqiqiy bayroq qanday tasvirlangani ko'rsatish maqsadida reproduktsiyalardan, illyustratsiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

## **6-dars. SOAT RASIMINI ISHLASH.**

Soat rasmini tasvirlash uchun o'qituvchi chizmachilik kursi orqali o'rgangan geometrik shakllarni tasvirlash ularni uy ro'zg'or buyumlari, turli buyumlar chizishda qo'llanilishi xaqida qator tasvirlarni chiza olishi asosiy maqsad sifatida qaraladi.



Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarining ko'rish orqali idrok etishini o'stiradi. Ko'z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va xodisalarni solishtirish, ularni farqi va umumiyligi tomonlarini aniqlash, narsalarni shakl va tashqi ko'rinishi jixatidan tasniflashni anglaymiz. So'nggi paytlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki kishilar tashqaridan olinayotgan xar qanday ma'lumotlarni asosiy qismini ko'z bilan ko'rish orqali oladilar. Demak ko'z faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ta'lim va tarbiya ishlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish realistik rasm chizishni o'rgatishni, uning xayotda kishilarga qanday foyda keltirishni atroflicha ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ularni tevarak atrof xaqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Shular asosida bolalarga yangicha dunyoqarash shakllantiriladi.

Mavzuga doir soat rasmini ishlashni 1-sinf tasviriy san'at darsligida aylana shaklga ega bo'lgan soatni besh bosqich orqali chizish jarayoni tasvirlangan. Bunday tasvirlar, bosqichlar oson ko'rinsada aslida murakkab jarayonga o'tish bosqichi xisoblanadi.

Qo'shimcha sifatida quyidagilarni tasviya sifatida ko'rishi mumkin.


-doskada (sinf taxtasida), rasm daftarda, chizish uchun tanlangan yuzalarda, soat turlarini turli tomonlardan ko'rinishlarini tez chizgilar orqali ko'rsatish yaxshi samara beradi.



- Aylana shaklidagi soat rasmini chizish uchun chizma geometriya kursidagi aylanani teng bo'laklarga bo'lish amallarini puxta o'zlashtirish (tsirkul, transpartir, lineyka)

- kub, to'g'ri to'rt burchak kabi geometrik shakllarga soat ko'rinishini turli rakurslardan chizish bosqichlari.

Tasviriy san'at o'qituvchisi o'quvchilarda tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga estetik munosabatni tarkib toptirish, ularni go'zallikni xis qila bilishga, tushunishga xamda shu xis va tushunchalarni xayotga tatbiq etishga o'rgatish;

- Estetik va emotsiyal sezgirlikni o'stirish;
- badiiy-amaliy malakalarni shakllantirish;
- o'quvchilarga realistik rasm chizish asoslari xaqida bilim berish, ularda narsalarning o'ziga qarab rasmni chiza olish, xotiradan, tasavvurdan rasm chizish soxasida ko'nikma va malakalar xosil qilish.





*O'yinchoq soat modeli*

## **7-mavzu: KUZ FASLINI IDROK ETISH.**

O'quvchilarda kuz fasli haqida tasavvur hosil qilish uchun kuz manzaralari tasvirlangan rassomlarning asarlaridan reproduksiyalar, slaydlar, foto lavxalar namoyish etiladi. Bunda o'quvchilar atrof-muhitdagi, o'zi istiqomat qilayotgan hududdagi holatni turli fasllardagi ko'rinishlarini hayolan tasavvur qiladilar. Tasvirlarda aks ettirilgan osmon, daraxtlar, daraxt shoxlari, yer, me'moriy inshootlar harakatagi yoki harakatsiz buyumlarni chizishga oid mashqlar bajaradilar.



Darslikda ko'rsatilgan **Raxim Ahmedovning “Kuz manzarasi”** asari foto reproduksiyasini sinchkovlik bilan birgalikda tahlil qilish mumkin. (R.Ahmedov 1921-2008. Toshkent shahrida tavallud topgan, asarları: “Oq tosh”, “Dugonalar”, “Yanvar”, “Ona o'ylari”, “Onalik tonhgi”, “Qo'shiq”, “O'rol Tansiqboyev portreti”, “Surhonlik ayol”)

Masalan: Tanlangan xajm to'rtburchak; chizilish jarayoniga e'tibor qaratsak ya'ni kompozitsion tuzulishi bolalarga mos erkinlikda bajarilgan. Asardagi daraxtlar diyorimiz tog'li hududlariga xos ko'rinishda aks ettirilgan hamda baland-past tog'lar asar markazida ulkan daraxtni o'zgacha shaklda o'sganligini ko'rsatish maqsadida bir necha teraklar tasvirlangan. Manzara qishloq hududida ekanligini tasvirlash maqsadida harakatdagi odam, bir necha uy parandalari,

ikkinchi rejadan joy olgan. Asar ko'rinishi kichik detallardan emas balkianiq yer, dov-daraxtlar, tog' va to'rtdan bir qismi osmon bilan ajratilgan.

Rang munosabatlariga kelsak, iliq va sovuq ranglardan me'yorida foydalanilgan. Yetakchi rang sariq, qizg'ish zarg'aldoq. Dov-daraxtlarni yorqin ko'rinishini ta'minlash uchun fondan juda ustalik bilan foydalanilgan.

Osmon tiniq havo rang, tog'lar esa binafsha (fioletiviy) tusda ishlangan.


**Abduvali Mo'minov** “*Manzara*” asarida quyidagi jarayonni ko'rish mumkin.

Asar kompozitsiyasining asosiy qismi tog'lar. Tog'larni 5-6 reja bosqichida tasvirlashga erishilgan. Qirrali tog' toshlari, archazor tog'lar katta hajmdagi qoyali tog'lar hamda baland qorli tog'lar tasvirlangan.

Tog'arni tog' etagidan turib tomosha qilingandek xolatni ko'rsata olgan. Bunda ulkan qizg'ish qo'ng'ir tusdagi daraxt, tog'dan oqib kelayotgan o'ynoqi soy va kichik buta ko'rinishidagi daraxtlar tasvir markazini egallagan. Birinchi rejadagi to'yingan rangli obyektlar uzoq qorli tog'larni ko'rish mumkin. Deyarli asar to'liq yer, tog', daraxtlar bilan uyg'un xolda kartinani asosiy qismini egallagan. Osmon esa yordamchi sifatida o'rincini egallagan.

### **Sa'dulla Abdullayev “Kuz”**

Ushbu asarda rassom tog' etagidagi qishloq manzarasini moxirlik bilan ishlangan. Asarda asosiy obyekt sifatida uylarni ko'rish mumkin. Qishloqda asosan mevali, manbzalarli daraxtlar bo'lishi hammaga ma'lum, lekin kuz faslida daraxt barglari turlichalisa tusga kirishi haqida asarda ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Rassom asarlarini taxlil qilish orqali har bir o'quvchi yashayotgan xududi u yerdagi tabiat bilan yaqinroq tanishish hamda ya'nada tabiatga nisbatan e'tiborliroq bo'lish o'rgatiladi. Bu orqali yil fasllarini chuqurroq idrok etish kuz faslini rassomlar ijodida yetakchi sifatida ekanligi, ranglar boyligi kompozitsion yechim haqida o'qituvchi va o'quvchida kengroq tushuncha shakllanadi.



## **8-9 – mavzu: “KUZ” MAVZUSIDA RASM ISHLASH.**

Mavzu asosida rasm ishlash uchun avvalo o’qituvchi chiroyli manzaralarni foto suratlar, reproduksiyalar orqali kuzatiladi. Kuzatuv jarayonida ham suhbatlar tashkil qilish mumkin.

O’qituvchi iloji bo’lgan taqdirda o’quvchilarni tabiat qo’yniga sayohatga olib chiqish va kelgusi darslarda rasm chizishlari uchun kerak bo’ladigan ko’rinishlarni yaxshilab kuzatishlari lozimligini tushuntirish kerak. Bunda o’quvchilar o’qituvchi yordamida o’zlari uchun qiziqarli bo’lgan daraxtlar, butalar va shu kabilarning xomaki suratlarini chizib oladilar. Bu ishlarni amaliy tarzda bajarishni o’qituvchi turli xajmdagi formatga (qog’ozga, kartonga, sinf taxtasiga) chizib ko’rsatadi.

“Kuzda tabiat har xil ko’rinishda bo’ladi” nomli reproduksiyalarga qo’shimcha sifatida kuz faslini turli vaqtlarida o’zida kuz xolatini rango-rang ko’rinishda namoyon qiladigan mevali, manzarali, buta ko’rinishidagi daraxtlarni o’zgarish jarayoni, ranhgidagi turli xil ko’rinishlarni farqlash bo’yicha suhbat tashkil etilishi maqsadga muvifiq deyish mumkin.

1-rasmga ta’rif: *Bolalar ijodidagi kichik manzara.* Manzarada ikki tup ulkan daraxt va bog’ tasvirlangan. Quyoshli kun ekanligini tasvirlash uchun fondan foydalanish mumkin. Imkon qadar fon to’yinganroq bo’lsa ranglar kontraslar bo’yicha yorqin ko’zga tashlangan bo’lib ko’rinadi.

2-rasmga ta’rif: Tasvirda asosan iliq va sovuq ranglar bilan ishlangan. Yomg’irli kunni jo’shqin dinamik ranglarning o’zaro o’yinini ko’rish mumkin.yog’ayotgan yomg’ir daraxt shoxlarida sarg’ayib ulgurgan barglarni yomg’ir va shamol ta’sirida o’ziga xos yo’nalish bo’yicha tushishi harakatlanishi rasmni dinamikasini ta’minlaydi. Harakat holatini kuchaytirish maqsadida shoshib ketayotgan bola uning shamoldan harakatlanayotgan liboslari aks ettirilgan.

3-rasmga ta’rif: Rasmning asosiy qismida qushlar (turnalar) vilan hayrlashayotgan qizcha tasviri hamda barglari bilan hayrlashayotgan ulkan daraxt ko’rsaqtigani.

Fonda keng dalalar, osmon, tog’ tasviri qish faslidan darak berayotganligi tasvirlangan.

Demak, borliqni idrok etish quyidagi talablar bo’yicha shakllantirish mumkin.

- ✓ Tabiat va uning go’zalligi, fasllarning o’ziga hosligi.
- ✓ Yil fasllari (kuz, qish, bahor va yoz) va ularning o’ziga xos holatlari (yomg’ir, qor, shamol, tong, oqshom, shafaq)ning ko’rinishiga rang tuslarini ahamiyati.
- ✓ Har bir faslda o’ziha xos go’zallikni angash va idrok etish.

- ✓ Tasviriy san'at asarlarida shu kabi xolatlarni taqqoslash va unga nisbatan estetik munosabat bildirishah kabilardir.



**“Kuz manzarasi”** rangli qalam va pastel qalamida ishlangan  
(Fransuz tarshoni, qog’oz)





Akvarel bo'yog'i, allaprima usuli (allaprima qog'oz sathini namlantirib, nam holatida rang bilan ishlash. Fransuz tarshon qog'ozi)

**Fransuz tarshon qog'ozı** maxsus rang vositalari bilan ishslash uchun mo'ljallangan bo'lib, uning sathi qalin, g'adir-budir shaklga ega noteks qog'oz.



## 10-mavzu: BARGLARDAN TASVIR HOSIL QILISH.

Ushbu mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan quyidagilarga e'tibor berish lozim.

**Dekorativ kompozitsiya** – turli xarakterdagi ijodiy amaliy bezak ishlari, badiiy-texnik loyixa singarilarni qamrab oladi. U o'quvchilarga turmushda uchraydigan badiiy buyumlarning vazifalari, ularning shakli, bezak elementlarining o'zaro bog'liqligi hamda yuksak mahorat bilan tasvirlanayotgan narsalarni didsiz, pala-partish ishlangan narsalardan farq qila bilishga o'rgatishni, shuningdek, badiiy didni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi.



Dekorativ kompozitsiya darslarda bolalarga har Qanday badiiy bezak elementlari tevarak – atrofdagi narsa va xodisalardan olingani haqida tushuncha beriladi. Binobarn, bezak mashg'ulotlarida rasm ishlovchi real shaklni o'zgartirishi, uni soddalashtirishi, unga yangi elementlarni qo'shishi mumkinligini o'rganib oladi.



Barg bilan dekorativ kompozitsiya yaratish ish qurollari

**Qush tasviri**



**Chinor bargi va undan yasalgan kapalak shakli**



Barglardan qush va baliq tasviri shunday ishlanadi.




### **11-mavzu: HAYKAL ISHLASH.**


**Xaykaltaroshlik** - tasviriy san'at turidan bo'lib, xijmli qonun-qoida va uch o'lchamli tasvirlashga asoslanadi. Ko'proq portret, kam hollarda animalistik janr va natyumortlarda qo'llaniladi.

**Stek** - xaykaltaroshlik asbobi, steklar yog'och-metall, yoki plastmassa materiallaridan tayyorlanadi. Steklarni turli shakl va o'lchamdagilari bo'ladi. Steklardan loy, yog'och, mum va plastilindan xaykal ishlashda foydalaniladi.

**Plastilin** - xaykaltaroshlikda ishlatiladigan maxsus yumshoq qorishmayu u mum, loyga o'xshash kimyoviy briksmalardan tashkil topgan bo'lib, xamirsimon bo'ladi. Plastillindan xaykaltaroshlar xaykallarning maketini tayyorlashda foydalanilar.




Plastilin yoki loydan turli o‘yinchoqlarning nusxalarini yasash o‘quvchilarga yaxlit va alovida – alovida bo‘laklardan xaykal ishlash borasida puxta bilim berishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarga loydan ishlanadigan turli milliy o‘yinchoqlar va ularning tuzilishlari haqida tushuncha va tasavvur berish kerak bo‘ladi. Turli o‘yinchoqlar (xushtak, bulbul, xo‘rozcha, toychoq, tuya va shu kabi shakllar) tuzilishi va bezatilishining soddaligi bilan o‘quvchilar e’tiborini tezda o‘ziga jalb etadi.



Mazkur darsga oid o‘yinchoq xaykalcha quyidagicha yasaladi. Buning uchun yaxlit loy yoki plastilin bo‘lagidan katta, o‘rtacha kattalikdagi va kichikroq bo‘laklar ajratib olinadi. Ularning katta bo‘lagiga g‘o‘lasimon ko‘rinish beriladi.


Qolgan bo‘lakchalar koptokka o‘xshab dumaloqlanadi. G‘o‘lacha ko‘rinishidagi bo‘lakchadan toychaning egilgan tanasi ishlanadi. So‘ng o‘rtacha kattalikdagi bo‘laklardan kichikroq va ikkita kattaroq bo‘lakchalar oldingi va orqa oyooqlar ajratib olinadi, ularga rasmda ko‘rsatilgandek ishlov beriladi. Har bir bo‘lakchalarga kerakli ko‘rinish berib bo‘lingandan so‘ng ular o‘z o‘rniga yopishtirib chiqiladi. Ulangan joylar yaxshilab silliqlanadi. Toychaning yollari uning bo‘ynidan siqimlab cho‘zg‘ilash orqali yasaladi. SHuningdek, toychaning quloqchalari ham siqimlab cho‘zg‘ilash orqali yasaladi. Loydan yasalgan toychoq o‘yinchog‘i yaxshi qurigach, mufel pechiga qo‘yiladi so‘ng unga guash bo‘yog‘ida bezak beriladi.

## **12-13 – mavzu: AKVARIUMDAGI BALIQLAR RASMINI ISHLASH.**



Borliqni idrok etish mustaqil, shuningdek, tasviriy san’at mashg‘ulotlarining u yoki bu turi bilan qo‘shilgan holda o‘tkazilishi mumkin. Borliqni idrok etish mashg‘ulotlarining vazifalaridan biri tasviriy san’atning hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishdan iborat.


Borliqni idrok etish tabiat bilan bir qatorda hayvonlar va qushlar hamda qurilishlar, me’morchilik yodgorliklari, turmush buyumlari shuningdek xalq amaliy san’ati namunalarini o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi.



Atrofimizdagи olam hodisalarini idrok qilish, asosan o'quvchilarning xotira va tasvvur asosida rasm chizishlari bilan bog'liq bo'lib, bunday mashg'ulotlar bolalar o'qituvchi bilan birgalikda (o'tiladigan mavzuning mazmuniga ko'ra) maktab bog'iga, hiyobonlarga, xayvonot bog'lariga, shaxarlarga, me'morchilik yodgorliklariga qisqa muddatli sayoxat qiladilar. Sayoxatdan olgan taassurotlarini esa turli chiziqlar, ranglar yordamida tez chizgilarni erkin bajaradilar.

**Reja asosida**  
Akvariumdagи baliqlar rasmini ishslash mavzusi ham yuqoridagi fikrlarga mos tarzda rejaga kiritilgan.


Bolalar amaliy mashg'ulotni bajarishlaridan oldin:



#### **14-15 – mavzu: "IKKI ECHKI" ERTAGI ASOSIDA HAYKAL ISHLASH.**


Ertaklar asosida haykallar ishslash chizish jarayonini mustahkamlaydi ko'rgan, kuzatgan, xayolan chiza oladigan buyum yoki shaklni shaklni tez o'zlashtirishga o'rgatadi.

Dekorativ- amaliy faoliyat jarayonida o'quvchilarni estetik jixatdan tarbiyalash imkoniyatlari ancha kattadir. Chunki, bunday darslarda o'quvchilar o'zlarini katta bo'layotganini jiddiy ishga qo'l urgandek o'zida xissiyot paydo bo'ladi. Shu bilan birga xaykaltaroshlik ifodalilik vositalari haqida fikr yuritadilar. Dekorativ haykaltaroshlik, rasm chizish darslari bolalarda rasm chizishning oddiy ko'nikma va malakalarini xosil




qilish imkonini beradi.

- Mavzu bilan bog'liq bo'lgan voqeliknuzatish (shuningdek, illyustrativ rasm chizish) malakasini kuchaytiradi.
- Badiiy adabiyot bilan tasviriy san'at, haykaltaroshlik, o'zaro uyg'un jixatlarini turli tasavvurlar orqali shakllantira olishga o'rgatadi.




Mavzu asosida kompozitsiya yaratish (ya’ni ikki echki) jarayoni uchun tayyorgarlikning taxminiy tartibiquyidagicha bo‘lishi mumkin:

- Voqelikni kuzatish (shuningdek, illyustrativ rasm chizish) ya’ni hayvonlar, qushlar, daraxtlar, binolar, odamlar harakati va boshqalarnimaqsadga muvofiq ravishda kuzatish;
- To‘rejagan nazariy – amaliy bilimlarini kompozitsion echim orqali bo‘rtirib qisqartirish yo‘llarini o‘rgaanadi.




Echki haykali shunday ishlanadi:



## 16 – mavzu: O‘YINCHOQ AVTOMASHINA RASMINI ISHLASH.


Birinchi navbatda o‘qituvchi tomonidan turli avtomashinaar haqida ma’lumotlar, foto lavxalar ko‘rsatiladi hamda ularni nomlanishi haqida o‘quvchilar bilan suhbatlashiladi.




Zamonaviy texnika bilan xozirgi zamon bolalari juda qiziqadilar. Bundan tashqari turli modeldagи rang-barang avtomashina o‘yinchoqlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan sotuvga qo‘ymoqda.

Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’atni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, avvalo bu


sinflardagi  
ta’lim  
mazmuni  
kichik  
yoshdagi



1



2



3




4

bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilimi va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi. O‘qituvchi tomonidan namoish etiladigan narsalar tasvirlar avvalo mash-ulot mavzusi bilan bo‘liq xolda bo‘lib, ular o‘z tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his-xayajon uyota bo‘lishligi maqsadga muvofiqlik. Eng muximi, bunday materiallar o‘yinchoqlarni o‘ylashga majbur etadigan, bolani yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo‘lishi muxim.


Namoish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma’lumotlarni bolalarga og‘zaki etkazishda ularning taxlili muxim ahamiyat kasb etadi. Bu taxlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari ularning moxiyati haqida savol-javob tarzida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqlik.

## 17 – mavzu: QISH FASLINI IDROK ETISH


Rassom Alijon Raximovning “Qish” nomli asariga izox va asar bo‘yicha kichik taxlil.




Tasviriy san'at merosi namunalari va uni o'rgatish muammolariga qaratilgan jixatlarini kuzatar ekanmiz, har birining o'ziga xos xarakteri, katta tajribalarini borilagini ko'ramiz. Albatta, bunday dalillar o'tmishtasviriy san'at sirlarini har tomonlama tushunishimiz ulardan to'g'ri va asosli xulosalar chiqarishimizga yordam beradi. San'atning o'tmishi va buguni o'rtasidagi mushtaraklik va bog'liqliklarini mustahkam ushlab turuvchi xususiyatlari ham shularda desak, mubolag'a qilmagan bo'lamic.



Misol sifatida "Qish" asari tog' yon bag'irlaridagi kichik qishloqda qish xukmi surayotganligi ko'rsatilgan.




- Kompozitsion yechimi masalasi shundaki asar markazida daraxt tasvirlangan. Bunday kompozitsion tuzulish tomoshabinga xotirjamlik kayfiyatini taqdim etadi.



- 3 – 4 rejada tog'lar tasviri kenglik va chuqurlikni xavo perespektivasi qonuniyatlariga mos kelishini ko'rsatadi.
- Rang munosabatlari esa sovuq iqtimli muxitni ko'z oldimizga keltirib, nafislik, poklik, ulug'vorlik kabi xislatlar bilan bir


qatorda oq rang ko‘pligi bilan ajralib turadi.





## 18 – mavzu: XO‘TIKCHA XAYKALINI ISHLASH

Plastilin yoki loydan turli o‘yinchoqlarning nusxalarini yasash o‘quvchilarga yaxlit va aloxida-aloxida bo‘laklardan xaykal ishlash borasida puxta bilim berishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarga loydan ishlanadigan turli milliy o‘yinchoqlar va ularning tuzilishlari haqida tushuncha va tasavvur berish kerak bo‘ladi. Loydan ishlangan turli o‘yinchoqlar (xushtak, bulbul, xo‘rozsa, toycha, tuya va shu kabi shakllar) tuzilishi va bezatilishining soddaligi bilan o‘quvchilar etiborini tezda o‘ziga jalg etadi.

### HAYKALTAROSHLIK JIHOZLARI





Mazkur darsga oid rasmida plastilin yoki loydan avjratib olingan bir bo'lakchadan xo'tikchaning xaykalchasini yasash bosqichlari ko'rsatilgan. Buning uchun yaxlit loy yoki plastilin bo'ligidan katta, o'rtacha katalikdagi va va kichmikroq bo'lakchalar ajratib olinadi.



Olingen bo'lakchalar yasash kerak bo'lgan shaklga yaqinroq ko'rinish xochil qilinadi. Avvalgi mavzularda ham xaykalchalar yasash haqida ma'lumotlar berilgan lekin ushbu mavzu bo'yicha bir oz murakkabroq tarzda ishlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

- Demak, avvalo qalamda qog'ozga yoki bo'r bilan doskaga xo'tika shaklini milliy o'yinchoqlar tayyorlanish uslubi bo'yicha xomak chizmalar bajarish mumkin.
- Chizilgan xo'tikchani sharitdan kelib chiqib, (o'qituvchi maxorati nazarda tutilyapti.) dinamik, statik xarakatlarini ko'rsatib berish lozim.
- Rang berish jarayonidan oldin yaxshi bajarilgan xaykalchani ko'rgazma uchun o'qituvchi yordamida yakuniga etkazib olib qo'yish mumkin.

## 19 – mavzu: YELKANLI QAYIQCHA RASMINI ISHLASH




Mavzuga oid rasm chizish bolalarda xayolan chizish, ko'rgan buyumlarini eslab qolish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan bir qatorda suv usti suv osti bo'yicha keng tushunchaga ega bo'lishga xizmat qiladi. Mavzuni yoritish maqsadida o'qituvchi fotolavxalardan keng foydalanishi yaxshi natija beradi.

1. Bolalar tomonidan qayiqchalar, elkanli, eshkakli, sayoxat qayiqchalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.

2. Yuk kemalari, xarbiy kemalar, suv osti kemalari xamda katta suv inshootlari, daryolar, ko'lllar, dengiz, ummonlar haqida dastlabki ma'lumotlarni o'rganadilar.

Yelkanli qayiqchani bir necha bosqichda sinf doskasida yoki rasm daftarida ko'rsatish mumkin.






- Qog'ozga to'g'ri joylashtirish uchun birinchidan suzayotgan qayiqchani tasavvur etish zarur;
- Qalam, rangli flomaster, bo'yoqlar orqali mashqlar qilish maqsadga muvofiqdir;
- Yelkanli qayiqcha chizish mashg'ulotlarida o'qituvchi tomonidan ranglar majmuasini to'g'ri tanlashni o'rgatish asosiy

maummo xisoblanadi;

- Suv havorang, qayiq rangi havorangdan keskin farq qiladigan, jigarrang, sariq, pushti, oq bo'lishi mumkin. Qo'shimcha ranglardan foydalanib bezak berish yanada qayiqchani yaxlit ko'rinishini ta'minlaydi.;

- Qayiqcha elkanini yorqin ranglar, oq, sariq, qizil, zarg‘aldoq, pistoqi yashil qilib bo‘yash hamda elkan rangini suvdan, qayiqdan farq qilishini ko‘rsata olish kerak.






*Yelkanli qayiqcha rasmini ishlash bosqichlari*

**20-21 – mavzu: “UCH TULKI” ERTAGI ASOSIDA RASM ISHLASH.**

O‘qituvchining navbatdagi vazifasi ertaklarni tug‘ilishi tarbiyaviy ahamiyati, ertak qahramonlari insonlarga so‘zlashishlari yoki fikrashchlari sabalari bolalar ishtirokida baxs, suhbat sifatida tahlil qilinadi.




“Uch tulki” ertagi o‘qib eshittiriladi hamda kitobdagi tasvir muhokama qilinadi.

- Bosqichlar orqali ishlangan quyon tabiatdagi ko‘rinishiga mosligi tushuntiriladi.
- Ertak, multfilmdagi rassomlar tomonidan stilizatsiya yo‘li bilan ishlangan bir necha ko‘rinishdagi quyonlarni sinf taxtasida yoki ko‘rgazmali vositalarda ko‘rsatilishi mumkin.

- Ertakda aytilgan o‘rmonni bolalar tasavvur qilishlari qiyin. Shuning uchun ertak sodir bo‘lgan muxitni, joyni bolalar tasavvur doirasida ishlashiga qarshilik ko‘rsatmaslik zarur.

## 22 – mavzu: FIL HAYKALINI ISHLASH.

Fillar ertak va dostonlarda, multfilm va kinofilmarda aks etadi. Tabiatda juda ulkan, mehnatsevar, beozor, mehribon hayvon ekanligini bilamiz.



Bolalarni fil haqida ertak va hikoyalar, filmlar orqali olgan tasavvurlarini tiklash maqsadida ularga quyidagi mazmunda savollar beriladi:


- Fil ishtirok etgan qanday ertaklar bor?
- Fillar ishtirok etgan qanday malfimlar va kinolarni bilasiz?
- Badiiy asarlarda fillarning qanday sifatlari aks ettirilgan? (uzun hartuli, yo‘g‘on oyoqli, bahaybat ko‘rinishda).

Bolalarning navbatdagi vazifasi kitobdagagi rasmida ko‘rsatilgan fil tasviriga qaratiladi. Bolalar vazifani loy yoki plastilin bilan bajaradilar.



Ma’lumki, haykal va haykalchalar real yoki dekorativ haykallarga bo‘linadi. Real haykaltaroshlikda tasvir real ya’ni, hayotda borliqda qanday bo‘lsa shundayligicha ifodalanadi. Dekorativ haykaltaroshlikda esa tasvirga badiiy bezaklar, ishlovlar kiritilib umumlashtiriladi, soddalashtiriladi yoki ayrim qo‘sishcha elementlar qo‘shiladi.

Fil haykalchasini yasash uchun avvalo fil holatini aniqlab olish kerak bo‘ladi, ya’ni, u yotgan, turgan, yugurayotgan, xartumi orqali o‘zini cho‘miltirayotgan holatlari bo‘lishi mumkin.



### **23 – mavzu: SAMALYOT RASMINI ISHLASH.**


Darslikda tasviri ko‘rsatilgan turli rusumdagи samalyotlar haqida suxbat tashkil qilish zarur. YOki ulkan samalyotgacha bo‘lgan o‘yinchoq samalyotlar, qog‘ozdan yasalgan samalyotga o‘xshagan uchish moslamalari ko‘rgazmali qurol orqali yoki sinf taxtasiga chizib ko‘rsatiladi.

- O‘yinchoq, qog‘oz samalyotlar haqida suhbat.
- Odam tashish uchun mo‘ljallangan samalyot.
- Yuk tashish uchun mo‘ljallangan samalyot.
- Sport samalyoti.
- Harbiy samalyotlar.

Bolalarni yoshini xisobga olib qarasak mavzu juda qiyindek tuyuuladi. Lekin hozirda bolalarni rivojlanishi tevarak atrofni kuzatishlar idrok etishlari juda yuqori.

- O‘qituvchi tomonidan samalyot haqidagi ma’lumot dars davomida tushuntirib boriladi.
- Darslikda ko‘rsatilgan profil ko‘rinishga qo‘srimcha oldidan, tepasidan, tagidan tasavvur orqali chizish ham tavsiya etiladi.
- O‘zbekiston havo yo‘llari milliy aviokompaniyasi belgisi nimani anglashi, har bir millatni chiqqargan maxsulot o‘z nishoniga ega ekanligi dars jarayonida tushuntirib beriladi.






## 24 – mavzu: BAHOR FASLINI IDROK ETISH (Nazorat ishi – 1)

Tasviriy san'at fanidan turli choraklar kesimida nazorat ishi olib boriladi. Bu o‘z navbatida eng samarali vositalardan biridir. Tasviriy san'atda nazorat ishi o‘quvchilarga o‘qituvchilar o‘tilgan mavzularni mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Bahor fasli yil fasllari ichida o‘ziga xoch go‘zallikka egadir. Bu davr tabiat endi uyqu uyg‘anayotgan o‘zining yashil libosiga burkanayotgan daraxtlar gullayotgan davrdir. Bu o‘quv topshirig‘ini bajarishda kitobda berilgan rassomlar asarlarini tahlil qilish o‘qituvchi tomonidan himoya qilish o‘quvchilarda atrof muxitga bo‘lgan tushunchasini ishlangan (chizilgan) rasmlar bilan bog‘lash imkoniyati shakllana boshlaydi.

- “Moviyo  
ko‘l”  
**Abdulla**  
**Mo‘minov**

Ushbu reproduksiyada ulug‘vor tog‘lar etagidan maskan topgan katta yo‘l tasvirlangan. Asar kompozitsiyasiga e’tibor bersak juda murakkab kompozitsion echiiimga ega asar hisoblanadi.



Bir qarashda oson tahlil qilish mumkin. Lekin, avvalom bor asardagi sovuq iqtimli ranglardan moxirona foydalanganligi rejalar bo‘yicha ajratilganligini ko‘rish mumkin. Tog‘ va ko‘l suvidagi yaqinlik. Butun bir yaxlitlikni chiqaradi.

O‘qituvchi tomonidan quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilish zarur deb xisoblaymiz.

- Necha xil ko‘rinishlari bor?
- Tog‘larni rangi necha xil?
- Tog‘ni aksi suvda mavjudmi?
- Osmanni rangi qanday?

kabi savollar bolalarda kuzatib har bir detalga befarq bo‘lmashlikka o‘rgatadi.


### **“Bahor” Anvar Mirsoatov**

Anvar Mirsoatov bahor mavzusida juda ko‘p ijod qilgan O‘zbekistonlik iqtidorli rassomlardan biri. Darslikda “Bahor” asaridan reproduksiya O‘zbekiston bahorini yorqin, jarangli ranglar orqali ko‘rsata olgan asarlardan biri hisoblanadi.

Asar kompozitsiyasi ikki qismiga bo‘linadi.

Birinchi tog‘ yon bag‘rida qishloq, soy gullagan daraxatlar.

Ikkinchi ulkan ulug‘vor tog‘lar.



Asarda foydalanilgan ranglar bahor havosini gox issiq, gog‘sov uq salqin hoatini ko‘rsata olgan. Bir qarashda issiq iqlim va sovuq iqlimli ranglardan moxirona foydalanilgan.

O‘quvchilarga asardagi detall, element rang gormoniysi savollar ko‘rinishida o‘rgatish, tahlil qilish maqsadga muvofiq deyish mumkin.

- Bahorda ob-havoda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
- Qaysi mevali daraxtlar birinchi gullaydi?
- Soy suvi tiniq bo‘ladimi?
- Qushlar ovozini ajrata olasizmi? Degan engil, tushunarli savollar orqali o‘qituvchi yordamida suhbat o‘tkazilishi mumkin.



## **25 – mavzu: HAVO SHARI RASMINI CHIZISH.**

O‘quvchilar ishlaydigan ko‘pkina rasmlarda doira ko‘rinishidagi shakllarni tasvirlash kerakbo‘ladi. Masalan: soat, koptok, tarvuz, olma, limon va shu kabilardir. Bulardan tashqari mavzu asosida chiziladigan rasm kompozitsiyasini

boitishda ana shunday shakldagi tasvirlar ham ishlanadi. Havo sharining o‘ziga qarab rasmini chizish jarayonida ham o‘quvchilar doira chizish malakalarini hochil qiladilar.



Mazkur darsga oid berilgan rasmlarda o‘quvchilarning dumaloq, domra ko‘rinishiga ega bo‘lgan narsalar haqidagi tasavvurlarini boyitishi va shunday buyumlar, shaklli buyumlar bilan tanishtirish uchun quyidagicha savollar bilan o‘qituvchi tomonidan nazorat o‘tkazish mumkin.

- Qanday yumaloq poliz maxsulotlarini bilasiz?
- Qanday yumaloq sabzavot, mevalarni bilasiz?
- Avtomashinani qanday dumaloq qislari bor?
- Sport anjomlarida yumaloq shaklli qanday buyumlar bor?
- Uy ro‘zg‘or buyumlarida yumaloq shaklga ega qanday (mehnat qurollari, idish-tovoq va shunga o‘xshashlar) anjomlarni ko‘rgansiz? kabi so‘rovlar suxbatlar tashkil etish mumkin.

Savollar, so‘rovlar tashkillangandan so‘ng o‘qituvchi dumaloq va uzunchoq shaklga ega bo‘lgan xavo sharlarining rasmini amaliy ravishda sinf doskasiga chizib ko‘rsatadi.




### ***Bolalar ijodidan***

Bunda o‘qituvchi dumaloq va cho‘zinchoq havo sharlarining o‘zaro katta-kichikligi, eni, ranglari, soya va yorug‘ tomonlari haqida tushuncha beriladi. Ularning har ikkalasini birgalikda chizishdan oldin umumiy balandiliklari va enini engil chiziqlar bilan belgilab olish, dumaloq ko‘rinishdagi havo sharlarini kvadrat ichiga, cho‘zinchoq shakldagi havo sharlarini esa qiya tarzda chizilgan katta chiziq atrofida chizish lozimligi, bunda umumiy belgilangan chiziqlardan chetga chiqib ketmasligi uqtiriladi. Bolalar topshiriqlarni yaxshi tushunib olganlaridan so‘ng, kamalakning etti xil rangi o‘qituvchi tomonidan sanab o‘tiladi va sanab o‘tilgan ranglar haqida ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan beriladi.

Havo sharları qanday tadbir uchun tayyorlanganligini sharlarni bezash bilan belgilanishi aytib o‘tiladi.

Savollar:

- Necha xil ranglarni bilasiz?
- Sharlar shaklini sanab bering.
- Qizil sharni qanday rang orqali bezatish mumkin?
- Sariq sharnichi?
- Ko‘k rangli shar osmonda ko‘rinadimi?
- Ko‘rinishi uchun qanday sharlar qanday rangda bo‘lishi kerak?



## 26-27 – mavzu: “O'LKAMIZDA BAHOR” MAVZUSIDA RASM ISHLASH.

Darslikda O'rol Tansiqboevning “O'zbekistonda mart” asari reproduksiyasi tasvirlangan.

O'rol Tansiqboev mashxur manzarachi rassom, rangtasvir ustasi. U 1904 yilda Toshkentda tavallud topgan va 1974 yilda vafot etgan.

O'rol Tansiqboev yoshligidan san'atga qiziqib, Toshkentdagи badiiy muzey qoshidagi to'garakka (studiya, krujok) qatnab dastlabki saboqlrni I.Repinning shogirdi N.Ro'zanovdan oladi. To'garakka qatnab yurib ijod qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi hamda kompozitsiyalar yaratadi.



O'rol Tansiqboevning mustaqil ijodi O'zbekistonda milliy san'atning tiklanish davriga to'g'ri keladi. U o'z ijodining dastlabki yillarida anchagina asarlar yaratgan bo'lsada, biroq uning asosiy ijodi 1940 yildan so'ng boshlandi.

1943 yilda ijodiy kompozitsiyalari elga manzur bo'lganligi uning ijodiy faoliyati xizmatlarini xisobga olinib, unga "O'zbakistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" unvoni beriladi.

II jaxon urishi yillaridan keyin O'rol Tansiqboev katta o'lchamdag'i asarlar yarata boshladi. Bunday asarlar qatoriga "*Sholi xosilini yig'ib olish*", "*Bahor*", "*Paxtani sug'orish*", "*Jonajon o'lka*", "*Issiq ko'l oqshomi*", "*Tog'da*", "*Tog'da bahor*", "*Qayroqqum GESi tongi*", "*Angren vodiysi*" kabi betakror asarlar yaratadi.

Vatanimiz san'atining rivojlantirishdagi xizmatlarini taqdirlab rassom hukumatmizning bir qator orden va medallari bilan mukofotlangan.

U O'zbekiston xalq rassomi, Rossiya badiiy akademiyasining haqiqiy a'zosi edi. Rassomning bir qator asarlari Moskvadagi Trelyakov galereyasi, Sharq xalqlari san'ati muzeyi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Moldava, Latviya, O'zbekiston san'at muzeylaridan o'rinn olgan.

O'rol Tansiqboev birinchilar qatori manzara janrida ijod qilib san'atimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan musavvirlardan edi. U o'z asarlarida

O'zbekistonning go'zalligini, uning jozibasini kuyladi. O'rol Tansiqboevning asarlari yana uzoq yillar bizni va kelajak avlodni ham Vatanga muhabbat, go'zallikdan zavqlanishga chorlab turishi shubxasiz.

Bahor mavzusi bo'yicha tabiat manzarasini ishslash tasviriy faoliyatni rivojlantirishning asosiy negizi hisoblanadi.

Qisqacha manzara janri haqida – tabiatdagи turli ko'rinishlarning tasviriy san'atda aks ettirilishidir. Tog', o'rmon, dengiz, shahar va qishloq manzaralarining ko'rinishlari aniq bir mazmunni berib hayotiy ma'noni angatsa va shu ko'rinishda maqsad mazmunga ega bo'lsa bunday asarlar manzara janriga tegishli xisoblanadi. Gap manzara janri haqida ketar ekan, manzaraning moxir ustalari Klod Leron, SHishkin, Levitan, Karaxan, Tansiqboev va boshqa mashxur



rassomlarni bu borada misol keltirish mumkin.

Manzarachi rassomlarining shakllanishi da ham o'ziga xos sirlari bor. Buning uchun tabiatni sevish, uni kuzata bilish ayniqsa rang-lavhalar, ya'ni, etyudlar ustida ishlay bilish talab qilinadi. Chunki tabiatning har bir kichik bo'ligida butun bir olamga hos mazmun va ma'no yotadi.

Umuman, tasviriy san'at sirlarini yoshlarga o'rgatish uchun biz yuqorida ko'rgan nazariy bilimlar, ya'ni, tasviriy san'atning ko'rinish, tur va janrlari bir qarashda oddiy bo'lib ko'rinsada, bu bilimlar badiiy ta'lif va tarliya berishning alifbosи mujassamdir.




### *Bolalar ijodidan*

## **28 – mavzu:BAHOR GULLARI HAR XIL BO‘LADI. GULLAR RASMINI ISHLASH.**

Gullar, o‘zlarining tuzilishi, shakli, rangi, o‘lchovlari bilan kishilarda zavq-shavq bag‘ishlaydi. Shuning uchun odamlar yaqinlariga, yani, ota-onalari, buvabuvilari, aka-ukalari, opa-singillariga, dugonalariga hamda do‘sstlariga ularning quvonchli kunlarida gullar taqdim etadilar. Gullarni hordiq chiqarish maqsadida guldon va boshqa shu kabi idishlarga solib qo‘yadilar. Shu niyatda odamlar gullarni o‘z uylari, hovli va bog‘larida parvarishlab o‘stiradilar. To‘y bayram kabi yig‘inlar ham gullarsiz o‘tsaydi. Xullas, gullar odamlar uchun quvornch va ezhulik ramzidir. Gullarning bu sifatlarini inobatga olib shoirlar ular haqida she’rlar to‘qiydilar, rassomlar ularni rasmlarini ishlaydilar.



Momaqaymoq guli quyidagicha chiziladi:



*Gullar ishtirokidagi natyurmort ishslash bosqichlari*



Mu'lumki, bahor gullari nihoyatda turli-tuman bo'ladi. Ularning sasmlarini bolalar ham bir necha bor chizgandirlar. Lekin, ular shakli, rangi, tuzilishi, hidi jixatidan shunchalik turli tumanki, har kuni tomosha qilsangiz ham chizsangiz ham zerikmaysiz.

Navbatdagi vazifani chizish uchun o'qituvchi tomonidan sinfda o'rnatilgan natyumortni va uni yaxshilab tahlil etishdan iborat. Bunda quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi:

- Natyumort nimalardan tashkil topgan?
- U qayerda turipti?
- Natyumort qanday gullardan iborat?
- Natyumortga yorug'lik qaysi tomondan tushyapti?
- Borliqdagi idish va gullarning tuzilishi qanday? SHakllari, ranglari-chi?

- Gullarni bir-biridan, tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari jixatidan qanday farqlari bori?

Chizishga kirishishdan avval o'quvchilar borliqning umumiy eni va bo'yini hisobga olib rasm daftarini holatini aniqlab oladilar. So'ngra uni qog'oz yuzasiga kompozitsion jixatdan joylashtiradilar. Rasm qog'oz yuzasida katta ham kichik ham bo'lmasligi lozim. Natyumortni ishlash jarayoni albatta ustoz yordamida amalga oshiriladi.

Darslikda reproduksiya sifatida G'ofur Abduraxmonovning "*Qizil karnaygulli natyumort*" asari berilgan. Bu asar juda maxorat bilan kuchli rangtasvir uslubida yaratilgan. Maktab yoshidagi bolalar uchun ko'rgazma sifatida. Fan o'qituvchilari uchun metodik bosqichma-bosqichlikda o'rganish uchun manbaa sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Laylo Salimova asari ham yuqori rangtasvir uslubida bajarilgan, lekin, qaysidir jixatlari bilan fan o'qituvchilari, o'quvchilar tomonidan nuchxi ko'chirib malakalarini oshirish mumkin.

### **Laylo Salimjonova hayoti va ijodi.**

Laylo Abubakirovna Salimjonova 1936 yilda Samarqand viloyatining Urgut shaxrida tug'ilgan. Laylo o'rta maktabning 8-sinfini tamomlab, o'zining qiziqishi tufayli P.P.Benkov nomidagi Respublika badiiy bilim yurtiga o'qishga kiradi. Bilim yurtini 1957 yilda muvafaqqiyatli bitirib, shu yilning o'zida teatr va rassomlik institutining tasviriy san'at fakultetiga o'qishga kirib 1963 yilda tamomlaydi.

"Saodat" jurnalining bosh muharriri,  
shoira



**L.Salimjonova "Gullar"**



**Bolalar ijodidan**


Zulfiya Laylo Salimjonovani 1963 yilda, ya'ni u hali talabalik davridayoq mazkur jurnalda ishlashga taklif etgan edi. Shu tariqa Laylo Salimjonova bu jurnalda 30 yil mobaynida bosh rassom bo'lib ishladi. Keyinchalik u "Guliston" jurnalida ham faoliyat ko'rsatdi. Bu yillar mobaynida iste'dodli rassom O'zbekiston Rassomlar uyushmasini a'zosi bo'ldi,

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoniga sazovor bo‘ldi.

Laylo Salimjonova gullarni juda sevardi. Uning “Xrizontema natyumorti”, “Oq gullar”, “Moviy fandagi natyumort” kabi asarlarini kuzatib, gullardagi go‘zallik – rassom ijodining asosiy mavzusi deyish mumkin.

### 29-30 – mavzu: KAPALAK RASMINI ISHLASH.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga kapalaklarni hayoti va turlari haqida savol-javoblar yordamida kerakli tushunchalarini berish maqsadga muvofiqdir.



Bu darsda bajariladigan o‘quv topshirig‘i harakteriga ko‘ra jamoa bo‘lib ishlashga mos keladi. Darsning boshlanishida o‘qituvchi bolalarga kapalaklarning turli nusxalari tasvirlangan suratlarni ko‘rsatadi.

Amaliy mashg‘ulot uchun o‘qituvchi tomonidan turli o‘lchamdagи katta va kichik bo‘lgan bir necha xil kapalak eskiz rasmlarini tayyorlab qo‘yish mumkin.

- Qo‘l harakatlar orqali kapalakni uchish holatidagi harakatlarini ko‘rsatish.
- Katta qanotli kapalaklarni harakati sekin bo‘lishi sabalari?
- Kichik, chaqqon harakatlanadigan kapalak ko‘rinishlaridagi farqlar.
- Kapalaklarni turli-tuman rangda bo‘lishi sabalari.

- Tevarak atrofimizda kapalaklarni vazifalari nimadan iborat? kabi savollar bilan suhbat o'tkazish mumkin.


Darslikda ko'rsatilgan bosqichlar bo'yicha ishlangan kapalaklarga qo'shimcha sinf doskasida bir necha ko'rinishda eskiz chizmalar bajarish mumkin.

Ushbu darsga oid "Kapalak" mavzusida applekatsiya yo'li bilan ishslash ham mumkin. Buning uchun o'qituvchi yordamida tayyor rangli qog'ozlar yoki bo'yab tayyorlangan qog'ozni orqa tomoniga kapalakni kerakli qismlari qanoti, uning gullari, tanasi va tanasining turli qismlari qalamda aniq chizgilar yordamida o'qituvchi rahbarligida yoki uyda ota-onalar yordamida qaychi orqali kesib olinadi hamda elim bilan yopishtirib "Kapalak" applekatsiyasi tayyorlanadi.

### **31 – mavzu: TO'TIQUSH RASMINI ISHLASH.**

"To'tiqush" rasmini ishslash uchun avvalo o'qituvchi tomonidan qushlar va ularning turlari haqida ma'lumot beriladi. SHu bilan birga turli qushlarning nomlari ranglar slaydlar, fotoreprodeksiyalar qo'shimcha ma'lumot sifatida bayon qilinadi.

- To'tiqushni qaysi multfilmlarda ko'rgansiz?
- To'tiqush ishtirok etgan kinofilmlar haqida gapiring.
- O'zbekistonda, o'rmon-bog'larda to'tiqushni uchratish mumkinmi?
- Nima uchun to'tiqushning ranglari yorqin va rang-barang?
- Nima uchun to'tiqushlarni qafasda saqlashadi, boqishadi kabi savollarni berib to'liq bo'lmasagan javoblarga o'qituvchi tomonidan qo'shimchalar bilan to'ldiriladi.



To‘tiquish rasmini reproduksiyalar (mavzuga doir rasmlar) orqali namoyish etilgandan so‘ng, sinf taxtasiga yoki kattaroq hajmdagi qog‘ozga yorqin rangli chizish vositalari (kist, akvarel, rangli tayoqchalar, rangli tush, marker, flomaster) orqali chizib ko‘rsatish tavsiya etiladi.



Qo‘sishimcha sifatida to‘tiquishni panjasi, tumshug‘iga alohida e’tibor qaratish zarur. Boshqa tropik o‘rmon qushlaridan farqli tomonlari aytib o’tiladi.

- To‘tiquishning rangi yorqin, jo‘shqinligi, go‘zalligi shundaki dushmanlarga ko‘rinmaslik, chalg‘itish uchun xizmat qiladi.
- Panjalari o‘tkar qayrilganligi daraxt shox – shabbalariga mustahkam o‘rnashni ta’minlaydi.

- Tumshug‘ini ilmoq shaklida bo‘lishi uchun uni daraxt sshoxlaridap ohista harakatlanishiga qo‘srimcha panja vazifasini ham bajaradi.

To‘tiquish tasvirini ishslash uchun kichik tavsiyalar:

- Oval, doira, uchburchak geometrik shakllardan foydalilanadi.
- Oval shakli asosida to‘tiquushning tana qsmi ishlanadi.
- Aylana shakli orqali boshi, ko‘zi, toji, panja uchlari va tumshug‘i (yarim aylana) tasvirini ishslash mumkin.
- Uchburchak shaklini turli burchaklar ostida dumi, qanotlari kabi qismlarini chizish qulay bo‘ladi.
- Tez chizgilarni bir necha marta bajarilsa, asosiy bosh, bo‘yin, tana, dum qismi o‘zaro mutanosibligi (proporsiyasi) boshqa qushlardan farqi yaqqol ko‘rinadi, to‘tiga hos chizmadagi harakter topiladi.



## Tasviriy san'at fanidan izohli lug'at

|  |  |
|--|--|
| Akvarel - tayyorlashda suvda parchalanish hususiyatiga ega modda, masalan gummiarabik moddasidan foydalanilgan bo'yoq turi. Odatda akvarel suv bilan qorilganda suv kabi tiniq keladi va mo'yqalamda uzun dog'lar yordamida ishlanadi.       | Watercolors - Paint, which is used for the manufacture of water-soluble binders such gum Arabian. Usually water soluble to water-color transparent state and applied to the paper wide spots, known as dithering.                                  |
| Akril - sintetik bo'yoq, birinchi marotaba 1940 yilda yog' va akvarelning qo'shib ishlanishi natijasida hosil bo'lgan. Ko'p hollarda turli xiltiniq ranglardan to mo'yqalam zarbalaridan hosil bo'lgan natijalarni olish uchun qo'llaniladi. | Acrylic - A type of rapid drying and versatile synthetic paint that is especially popular with artists working today. The term is also used as a generic term for any synthetic paint medium. Acrylics have good adhesive and elastic properties . |
| Alla prima- (lot-birinchi urinishdan) tasviriy san'atdagi rassomlik usuli, mohiyati shundaki, ishlanadigan tasvir hech bir yordamchi chizmalarsiz ishlanadi.   | Alla nrima - (Latin - the first time) - technique in which the final surface of a painting is completed in one sitting, without under painting.  |
| Ammalizm - (lot-jonivor, hayvonot) tasviriy san'atda hayvonlar, jonivorlarni ishlash.  | Animalism - (Lat. - The animal) - pictures of animals in art.  |
| Axromatik ranglar—qar.   | Achromatic colors - see chromatic colors   |
| Botal janri - (frans bataille-jang). Jang va jang hayotiga bag'ishlanadigan tasviriy san'at janri. Asosiy qismini jang olib borish jarayoni, jangdan keyin nishonlash jarayoni, yurishlar va namoyishlar tashkil etadi.                      | Battle Genre - (from Fr. Bataille battle). Battle-painting. Genre of fine arts dedicated to the themes of war and military life. Foremost in the battle genre scenes occupy land and sea battles, military campaigns, and parades.                 |
| Buklet - (frans.bouquette - qayrilish, bukhanish). Qog'ozlarning nashr qilingan shakli, ular bir biriga nisbatan parallel buklangan va taxlangan holatda bo'ladi.  | Booklet - (French bouquette spread, bed). Form publication in the form of sheets, folded and deployed on parallel folds without binding. Booklet unfolds like a screen.  |
| Qog'oz- tasviriy san'atda qog'oz ko'proq   | Paper - Paper, quality, composition, and   |

|   |  |
|---|--|
| akvarel bilan ishslashda qo'llaniladi, bu yerda ortiqcha takrorlanishlardan qochib, faqat bir qancha mulohazalar bilan kifoyalanish mumkin.   | so prominently in the descriptions of watercolors, and so to avoid unnecessary repetition here may restrict ourselves to a few remarks.  |
| Byust - (frans busteva ital busto qomat, gavda) ko'pincha haykaltaroshlikda odam qomatining ko'krakdan pastki qismi, kamdan - kan qorin, bel qismi tasvirlanadi. Bu san'at turi qadimgi Gretsya va Misrda paydo bo'lgan, asosan Qadimgi Rimda jadal rivojlangan, Rimda asarga tirgovchi qo'shilgan. | Bust - from (Fr. buste, and Italian, Busto - trunk, torso) - brisket, less waist or shoulders image of a man in a round sculpture. Bust appeared in Ancient Egypt and Ancient Greece (originally as funerary portrait, in Greece as well as germanium), significant development in the art of ancient Rome.            |
| Vanman-(angl whatman) - qalin qattiq qog'oz. Juda sifatli, yuzasi ga'dir - budur, mustahkam va yaxshi moylangan qog'oz. Qog'oz nomi ingliz qog'oz korxonasi egasi J.Vatman sharafiga qo'yilgan.   | Whatman - (from the English. Whatman) - thick white paper, high grade paper with a rough surface, good sized and strong. Named after die owner of English J. Whatman paper   |
| Ko'rgazma- texnika, fan, madaniyat, iqtisod va san'at kabi sohalardagi yutuqlarni omma e'tiboriga havola etish. Ko`rgazma tadbir va o`tkazilayotgan joyni bildirishni mumkin.   | Exhibition - Public demonstration of the achievements in the fields of economy, science, technology, art and culture. The exhibition can be denoted as the event itself, and holding it there. In a narrow sense – installation, weighting of art for display, viewing, discussion.                                    |
| O'ynanaqsh - bu metal, tosh, yog'och yoki boshqa malerialga tushirilgan qog'ozdagi rasm izi. O'yma naqshning turli uslublari mavjud: kesmanaqsh, ofort, andozali nashr, toshbosma va boshqalar. Kesma naqsh va ofortda rasm metal plastina bo'ylab kesiladi yoki ofortda kislota bilan yuviladi.    | Engraving - Printing technique in which an intaglio image is produced by cutting a metal plate or box directly with a sharp engraving tool. The incised lines are inked and printed with heavy pressure. There are different techniques of engraving: engraving, etching, lithography, serigraphy and screen printing. |
| Grafika - (grek.graphike, grapho yozaman, chizaman) 1. Tasviriy san'atturi bo'lib, asosiy tasviriy vositalar: qog'ozga tushirilgan chiziqlar,   | Graphics-(Greek graphike, grapho writing, Church, paint). 1. Type of fine art, based on drawings made by major graphic means: line, strokes, spots and   |

|  |  |
|--|--|
| <p>shtrixlar, dog' va nuqtalar bilan rasm chiziladi. Grafika ikki turga bo'linadi: tasviriy (rasm), muallif tomonidan chizilgan rasm va nashr iqilingan: o'yma naqsh, toshbosma. 2. Asosi shunday rasmdan iborat bo'lghan inashr qilingan badiiy tasvirlar (o'yma naqsh, toshbosma). Ranglar grafikada fcwdamchi vazifasini bajaradi.</p>  | <p>dots drawn on a piece of paper. Schedule is divided into two types: a drawing (figure), the picture painted by the artist and print: engraving, lithography. 2. Printed art images, which are based on a pattern (engraving, lithography). Color chart in a supporting role.</p>  |
| <p>Guash (fran. Guache, ital. guazzo suv bo'yog'i). 1. Tiniq bo'lman bo'yoq, suvdayelim (gummiarabik yoki dekstrin) va belil moddasini aralashmasi. Akvarelning bir turi sifatida paydo bo'lgan. Guashli bo'yoq rasm yuzasida qalin qatlam hosil qiladi. Belil bo'lganligi sababli, guashda chizilgan rasm qurish jarayonida ocharadi va baxmalga o'xshash mayin rangga aylanadi. Guash - qoplovchi, korpus bo'yog'i, ya'ni to'q ranglarni och ranglar bilan qoplash hususiyatiga ega va aksincha.</p> | <p>Gouache (Fr. Gouache, Italian. Guazzo water-based paint). 1. Opaque paint pounded on the water with glue (gum Arabic or dextrin) and mixed oxide. Emerged as a kind of watercolor. Gouache forms on the surface of a dense layer of painting. Because of the presence of white, gouache painting dries lightens and becomes velvety matte. Gouache - opacity, body color that is capable to block the light and dark colors on the contrary</p> |
| <p>Kompozitsiya qonunlari - (lot.compositio — insho, tuzish). Badiiy koompozitsiyaning asosiy qonunlari: tenglik, yakkalik va uni tashkil etuvchi elementlarning yagona fikrga, bir butunni qabul qilish hususiyatini aniqlovchi mazmun va boshqa qismlarga tobelligi.</p>   | <p>Composition laws (Latin composition-writing, drafting). Basic laws of artistic composition: balance, unity, and the subordination of its elements monolithic ideological concept, content and other components determines the perception of a whole.</p>  |
| <p>Tasviriy san'at - badiiy ijodning bir turi, badiiy obrazlarni tekislik va makonda namoyon etadi. Bu tushunchalar tasviriy san'at, grafika va me'morchilik, shuningdek arxitekturaning har xil turlarini birlashtiradi.</p>  | <p>Art. (Controversial one this...) Having a degree of human involvement — through manual skills or thought products of human creativity. The creation of beautiful or significant things, a superior skill that you learn by study and praise and observation or photographs or other representations in</p>  |

|   |  |
|---|--|
|   | a publication.   |
| Rasm - (lot.illustratio - yoritish, tasvir), matnni to'ldiruvchi (rasm, gravyuralar, foto suratlar, xarita, chizmalar va b.) tasvir. Adabiyot va ilmiy asarlarning tasviri yoritilishi.   | Illustration-(from the Latin. Illustratio - lighting, visual representation), image, accompanying and complementing die text (drawings, prints, photographs, prints, maps, charts, etc.). A general term used for a drawing or an original work of art.  |
| San'at - 1. Ijodiy tasvir, butun borliqni badiiy obrazlarda yetkazib berish.<br>San'at - jamoat fikri shakllaridan biri va ham bir insonning, ham butun odamzod madaniyatining bir qismi, barcha avlodlarning ijodiy faoliyatining turli natijalari. Tasviri san'at, dekorativ san'at.<br>2. Mohirlik, ustalik, ishni chuqur bilish.<br>3. Shunday mohirlik talab qiluvchi ish. | Art - 1. (Controversial one this... } Having a degree of human involvement — through manual skills or thought products of human creativity. The creation of beautiful or significant things, a superior skill that you learn by study and praise and observation or photographs or other representations in a publication. |
| Qalam - chizish, bo`yash va chizmachilikka mo`ljallangan buyum yoki yozuv quroli, ichi loyga o`xshash grafitli moddadan iborat bo`lgan yog'och tayoq, ichiko'mir, qo'rg'ooshin, grafit yoki quruq presslangan bo`yoqlardan (rangli qalamlar) iborat bo`lishi mumkin, odatda ustki qismi yog'och yoki metaldan bo`ladi   | Pencil - A slender cylinder or strip of black lead, colored chalk, slate or graphite used for drawing.   |
| Karton (fran.carton, ital.cartone, carta — qog'oz). 1. Qalin, qattiq va juda pishiq qog'oz, oddiy qog'ozdan qalin. Qog'ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u o'zakka tushiriladi (mato, devor, yog'och yoki metal tekislik).  | Cardboard (French carton, from Italian. Cartone, from carta - paper). 1. Thick, dense and very strong paper, thick and brown sugar. 2. Preparatory drawing, sketch, sketch on paper, which was subsequently transferred to the substrate (paper, wall, wooden or metal board).   |
| Kompozitsiya - (lot.composition - tuzish) - badiiy asarni uning mazmuni va hususiyatiga ko'ra tuzish.<br>Kompozitsiya asarga o'ziga hoslik va butunlik bahsh etuvchi badiiy shaklning   | Song - (from the Latin. Composition - drawing) - Construction work of art due to its content and character. The composition is a key element of artistic form, which gives the product of unity  |

|  |  |
|--|--|
| muhim elementi hisoblanadi.  | and integrity.   |
| Bo'yoq - rang bo'yash vositalari tarkibining umumiy nomi, maishiy sohada foydalanishga mo'ljallangan, buyumlarga surtilganda yoki bo'ktirilganda u yoki bu rangni beradi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra pigmentlar va ulardan tayyorlangan bo'yoqlar mineral (noorganik tuzlar yoki metal oksidlari) va organik (o'simlik va hayvonlaming birlashishi). | Paint - Common name for the composition of color pigments, intended for use in everyday life, giving one or another color subjects that they are or are saturated. On the chemical composition of pigments and made them paint separated into mineral (inorganic salts or metal oxides) and organic (compounds of rejet or animal origin). |
| Molbert - (nem.malbrett - rassomlik san'ati uchun tokcha) - rassomlik san'ati uchun taxta yoki metal uskuna, turli balandlikda va turli nishablikda mato, karton yoki taxta bilan romlar qotiriladi.   | Easel - (from it. Do not use more than malbrett - shelf for painting) - wood or metal lathe for painting, which at different heights and with different slopes reinforced subframe with canvas, cardboard or board.  |
| Natyurmort- san'at janri, insonni o'rabi turgan muhitni tasvirlaydi, qoidaga ko'ra, kompozitsion tashkil etilgan (o'matilgan). Jonsiz narsalar, jonli tabiat obyektlari, buyumga qaratilgan. Ramziy mazmunga va ijtimoiy o'xshashlikka ega.  | Still life - a genre of art depicting a real human environment, usually organized composition (production). Inanimate objects, living objects, turned into a thing. Often carries the symbolic content and social analogy.   |
| Palitra - (fran.palette) –<br>1. Bo'yoqlarni aralashtirish uchun katta bo'limgan ingichka taxta;<br>2. Ushbu rassom yoki badiiy mifik asarlari uchun ushbu rasmga hos bo`lgan ranglar mutanosibligi hususiyati   | Palette - (from the French. Palette) –<br>1) The range of colours used by a particular artist, in a particular painting, or by a school of art.<br>2) The nature of color combinations those are typical for this picture, for the works of the artist or art school   |
| Haykaltaroshlik - tasviriy san'at turidan biri bo'lib, hajmli qonun-qoida va uch o'lchamli tasvirlashga asoslanadi. Ko'proq portret, kam hollarda animalistik janr va natyurmortda qo'llaniladi.   | Sculpture - A three-dimensional work of art that is modeled, carved or assembled from a variety of materials (such as stone, metal, glass or arbitrary materials).The principal means of expression: posture, gesture, embossing,  |

|  |  |
|--|--|
|  | texture, volume and proportion   |
| Xromatik ranglar - bir-biridan asosiy sifati, va ko`rinishi bilan ajralib turadigan ranglar. Xromatik ranglarga - quyosh nurlari tushganda hosil bo`ladigan, quyosh nurlari spektoridagi ranglar. Ranglar spektori shartli ravishda “ranglar doirasi” da joylashadi. Bu doirada ranglar sovuqda issiqqa qarab ketma - ketlikda joylashadi. | Chromatic colors - colors that have a special quality that sets them apart from one another. X. c. - The colors of the solar spectrum is created when sunlight refracted ray. False color spectrums are on the "color wheel". This scale has a large number of color transition from cold to warm colors |
| Shtrix - (nem. strich), qo'lning bir harakati bilan chiziladigan cbiziq, chegara. Shtrix orqali buyumning konturi va hajmini belgilash mumkin. Shtrix chizishning belgilangan tizimi, shtrixlash yorug'lik va soyaning siyqallashishini ta'minlaydi, bu esa hajmni va shakl mutanosibligini ko'rsatadi.                                    | Stroke - (German Strich), line, line, performed by a single motion. With lines transmitting circuit and form of figures and objects. Certain system of paint strokes, shading can send black and white graduation, reach impression volume and plasticity of form.                                       |
| Etyud- (frans. Etude - o'rganib chiqish) borliqni o'rganib chiqish uchun ishlanadigan tasvir. Odatda katta san'at asari yoki haykal yasash uchun qo'llaniladi.   | Etude - (from the French. Etude, literally - the study) - works made from nature in order to study it Often serves as preparatory material for the work on   |

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari ". Toshkent "O'zbekiston ".1997 yil
2. I.Karimov. "Barkamol avlod –O'zbekiston taraqiyotining poydevori". Toshkent. 1997 yil
3. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" .Toshkent 2008 yil.
4. R.Xasanov. "Tasviriy san'at" 1-sinf uchun darslik. Toshkent 2012 yil
5. R.Hasanov, X.Egamov "Tasviriy san'at darslari" O'qituvchi nashriyoti. Toshkent. 1995 yil.
6. N.Obidov "Rassom o'qituvchilar tayyorlash muammolari", O'qituvchi – ziyo nashriyoti. Toshkent 1997 yil.
7. B.Boymetov "Qalamtasvir" darslik 1-qism Toshkent nashriyoti 2006 yil.
8. B.Boymetov "Qalamtasvir" Pedagogika institute va universitet talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent 1997 yil.
9. I.Raxmonov "Perspektiva" Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti 1993 yil.
- 10.T.Qo'ziyev, E.Egamov, T.Qanoatov, A.Nurqobilov "Rangtasvir" "San'at" jurnali nashriyoti Toshkent-2003 yil.
- 11.A.Egamberdiyev, S.Saidova, R.Rajabov "Tasviriy va me'morchilik san'ati tarixi" "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2007 yil.
- 12.B.Boymetov. "Qalamtasvir" Toshkent "ILM-ZIYO" nashriyoti 2007 yil.
- 13.O.Mo'yinov "Rangtasvir" Toshkent "Sharq" matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
- 14.G'.A.Artiqov. "Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi" Toshkent "Sharq" matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
- 15.S.S.Bulatov "Rangshunoslik" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti Toshkent-2009 yil.
- 16.R. Hasanov "Tasviriy san'at asoslari" G'.Gulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi Toshkent-2009 yil.
- 17.<http://artclassic.edu.ru/>
- 18.<http://artschool.agava.ru/>
- 19.<http://www.manus.baikal.ru/rus/es21.ntm>
- 20.[http://www.rubicon.com/artp\\_1.asp](http://www.rubicon.com/artp_1.asp)
- 21.<http://www.arthistoru.ru/>
- 22.<http://art.rin.ru/>
- 23.<http://visaginart.narod.ru/visaginart.htm>
- 24.<http://aivazovsky.narod.ru/>
- 25.<http://www.philosophy.ru/library/byuchkov/hud-kult.html>

## MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| Kirish.....  | 1  |
| Tasviriy san`at turlari.....                               | 8  |
| Rangtasvir.....  | 13 |
| Haykaltaroshlik.....                                       | 16 |
| Rassomning ish qurollari.....                              | 23 |
| Chiziqlar va shakllar.....                                 | 27 |
| Bo`yoqlar va ranglar.....                                  | 32 |
| Bayroqcha rasmini ishlash.....                             | 39 |
| Soat rasimini ishlash.....                                 | 41 |
| Kuz faslini idrok etish.....                               | 44 |
| “Kuz” mavzusida rasm ishlash.....                          | 46 |
| Barglardan tasvir hosil qilish.....                        | 49 |
| Haykal ishlash.....  | 50 |
| Akvariumdagi baliqlar rasmini ishlash.....                 | 52 |
| “Ikki echki” ertagi asosida haykal ishlash.....            | 53 |
| O`yinchoq avtomashina rasmini ishlash.....                 | 56 |
| Qish faslini idrok etish.....                              | 56 |
| Xo`tikcha xaykalini ishlash.....                           | 59 |
| Yelkanli qayiqcha rasmini ishlash.....                     | 61 |
| “Uch tulki” ertagi asosida rasm ishlash.....               | 64 |
| Fil haykalini ishlash.....                                 | 65 |
| Samalyot rasmini ishlash.....                              | 66 |
| Bahor faslini idrok etish (nazorat ishi – 1).....          | 68 |
| Havo shari rasmini chizish.....                            | 70 |
| “O`lkamizda bahor” mavzusida rasm ishlash.....             | 72 |
| Bahor gullari har xil bo`ladi. gullar rasmini ishlash..... | 75 |
| Kapalak rasmini ishlash.....                               | 79 |
| To`tiqush rasmini ishlash.....                             | 80 |
| Tasviriy san`at fanidan izohli lug`at.....                 | 83 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....                    | 89 |